


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLYI TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMYIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



« TA‘LIMDA PSIXOLOGIK XIZMAT MUAMMOLARI »

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

Toshkent 2022

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: A.M.Nazarov - BuxDU, “Psixologiya” kafedrasida dotsenti.

Taqrizchilar: SH.R.Barotov - BuxDU, “Psixologiya” kafedrasida professori, psixologiya fanlari doktori. D.A.Sobirova - BuxDU, “Psixologiya” kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “30” dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I. Ishchi dastur	4
II. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari	14
III. Nazariy mashg‘ulot materiallari	19
IV. Amaliy mashg‘ulot mavzulari	59
V. Mustaqil ta’lim mavzulari	89
VI. Glossariy	90
VII. Adabiyotlar ro‘yxati	95

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: "Ta'limda psixologik xizmat muammolari" moduli fanlar tizimidagi o'rni (psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, tibbiyot, kibernetika va boshqalar), testologiyaning asosiy metodologik tushunchalari, testlar klassifikatsiyasi, o'lchash testlari konstruksiyasi: test komponentlari va ularning tuzish tartibi, test tuzish va amaliy qo'llash bosqichlari, psixometrik testlarning validligi, rentabelligi va haqqoniyligi, oliy ta'lim tizimidagi sinovlarda testlarni qo'llash haqida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshirish.

Modulning vazifalari:

□ Ta'limda psixologik xizmat muammolari fanining fanlar tizimidagi o'rnini baholash, psixologik xizmatning asosiy metodologik tushunchalari, testlar klassifikatsiyasi, xizmat ko'rsatish imkoniyatlari:

- Ta'limda psixologik xizmat ko'rsatish va ularning tuzilishi, psixologik xizmat bosqichlari, Umumta'lim maktablarida psixologik xizmat amaliyotini tashkil etish, oliy ta'lim tizimidagi psixologik xizmat haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

talaba amaliy psixolog mutaxassis va shaxs sifatida,

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotiga qo'yilgan talablar,

Umumta'lim maktablarida psixologik xizmat amaliyoti,

Psixologik xizmatning maqsad va vazifalari, psixologning

o'qituvchilar bilan olib boradigan ishlari bo'yicha

□ yangi psixologik testlar ishlab chiqishni;

□ testlarning yutuq va kamchiliklarini, metodikalarning ishonchliligi va validligini ta'minlash;

□ metodikalarni testlashtirish sohalariga muvofiq tanlash va foydalanish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

- tinglovchi amaliy psixolog mutaxassis va shaxs sifatida, maktabgacha tarbiya muassasasidagi psixolog ishi, birinchi sinfga kelayotgan bolalar bilan, umumta'lim maktabida, xususiy maktabda olib boriladigan ishlar, mexribonlik uylaridagi, ta'lim departamentidagi psixolog ishi, psixologning o'qituvchilar bilan olib boradigan ishlari bo'yicha *ko'nikmalarga ega bo'lishlari* kerak.

- tinglovchi maktabgacha tarbiya muassasasida olib boriladigan rivojlantiruvchi mashqlar, bolalarni o'qishga tayyorlash mashqlari, bolalarning maktabda o'qishga tayyorligini aniqlash dasturi, o'smirlar va ilk o'spirin uchun o'quv faoliyatini individual uslubi, maslahat jarayonini tashkil etish usullari, psixologik xizmatda fan va amaliyot birligi, maktab psixologi barcha ish turlarini bilishi, bola uchun qulay iqlim yaratish, maktab psixologining kasbga tayyorgarligi, psixologning maktab jamoasi bilan hamkorligi, o'quvchilarga individual yondashuv xizmatning asosiy tamoyillariga doir *malakalarga ega bo'lishi kerak*.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar
Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Ta'limda psixologik xizmat muammolari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Tadbiqiy ijtimoiy psixologiya” va “Zamonaviy psixodiagnostika muammolari” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning ta'lim jarayonida test tuzish texnologiyalari bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonida va kasbiy faoliyatida testologiyaning asosiy tamoyillari va qoidalaridan foydalanish va amalda qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

“Ta'limda psixologik xizmat muammolari” moduli bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Жами	jumladan	
			Назарий	Амалий машғулот
1.	Psixologik xizmatni tashkil etish. Ta'lim sohasidagi psixologning burchi va majburiyatlari.	2	2	
2.	Psixologik xizmat haqida Nizom. Ta'lim sohasidagi psixolog faoliyatining meyoriy hujjatlari.	2	2	
3.	Amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari. Pedagogpsixolog faoliyatining individual uslubi. Pedagogning psixologik kompetentligi.	2	2	
4.	Pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli. Pedagogik jamoa psixologiyasi. Zamonaviy psixologiya fanlari o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar.	2	2	
5.	Psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalari. Psixokorreksiyaning asosiy yo'nalishlari.	4		4
6.	Psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish. Psixokorreksion metodlari.	4		4
7.	Individual va guruxiy psixokorreksiya.	4		4
	Jami:	20	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Psixologik xizmatni tashkil etish. Ta'lim sohasidagi psixologning burchi va majburiyatlari. (2 soat). Reja:

1. Psixologik xizmatni tashkil etish

2. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotiga qo'yilgan talablar.

3. Umumta'lim maktablarida psixologik xizmat amaliyoti.

2-mavzu. Psixologik xizmat haqida Nizom. Ta'lim sohasidagi psixolog faoliyatining meyoriy hujjatlari. (2 soat). Reja:

1. Psixologik xizmatning maqsad va vazifalari
2. Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari
3. Psixologik xizmatning tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish

3-mavzu. Amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari. Pedagog-psixolog faoliyatining individual uslubi. Pedagogning psixologik kompetentligi. (2 soat). Reja:

1. Psixologik tashviqot, psixologik profilaktika.
2. Psixologik-pedagogik konsilium.

4-mavzu. Pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli. Pedagogik jamoa psixologiyasi. Zamonaviy psixologiya fanlari o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar. (2 soat). Reja:

1. Pedagogik jamoa psixologiyasi. Ta'lim va tarbiyani takomillashtirish faoliyatida ishtirok qilish
2. O'qituvchi va talabaning hamkorligi — ta'lim samaradorligining muhim omili
3. Zamonaviy psixologiya fanlari o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar

5-mavzu. Psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalari.

Psixokorreksiyaning asosiy yo'nalishlari. Reja:

1. Psixodiagnostik ishlar quyidagi vazifalar
2. Psixologning rivojlantiruvchi va korreksion ishlari
3. Psixologning maslahat berish faoliyati

6-mavzu. Psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish. Psixokorreksion metodlari. Reja:

1. Korreksion psixologiya predmeti va tuzatish ishlarini olib borish.
2. Korreksion psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari.
3. Korreksion psixologiyaning asosiy tamoyillari
4. Predmetning tadqiqot metodlari

7-mavzu. Individual va guruxiy psixokorreksiY. Reja:

1. Psixologik xizmatni boshqarish.
2. Psixokorreksion dasturlar klassifikatsiyasi.
3. Psixokorreksion tadbirlarning mazmuni klassifikatsiyasi.
4. Individual korreksion psixologiY. Guruxiy korreksion psixologiY.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli. Pedagogik jamoa psixologiyasi. Zamonaviy psixologiya fanlari o‘qituvchisiga qo‘yiladigan asosiy talablar. **(2 soat).**

2-amaliy mashg‘ulot. Psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalari. Psixokorreksiyaning asosiy yo‘nalishlari. **(2 soat).**

3-amaliy mashg‘ulot. Psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish. Psixokorreksion metodlari. **(4 soat).**

4-amaliy mashg‘ulot. Individual va guruxiy psixokorreksiY. **(2 soat).**

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

SH. Maxsus adabiyotlar

1. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
2. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
3. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
4. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
5. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
6. Mers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.

7. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
8. The Cambridge Handbook of Personality Psychology// Edited by Philip J. Corr. Cambridge University Press 2009.
9. A.Nazarov. Umumiy psixologiY. O‘quv-qo‘llanma. Buxoro viloyati bosmaxonasi MCHJ. Buxoro. 2020.
10. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
11. Barotov SH.R. Psixologik xizmat. –T.Navro‘z. 2018.
12. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
13. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi-Toshkent, Noshir., T 2010.
14. G‘oziyev E.R. Psixologiya metodologiyasi-Toshkent.O‘qituvchi.2010
15. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhamedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
16. Z.T.Nishonova, Z.Qurbonova, D.S.Qarshiyeva, N.B.Atabayeva Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya – T.: Fan va texnologiyalar 2014.
17. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
18. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiY. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
19. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
20. L.Y.Olimov, A.M.Nazarov, SH.SH.Rustamov, SH.SH.Ostonov. “Umumiy psixodiagnostika” o‘quv qo‘llanma. 2020.

21. L.Y.Olimov, SH.R.Barotov, O.R.Avezov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti. Toshkent. 2019.

22. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

23. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida.

<https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3. UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf>

24. Rasulov A.I. Psixodiagnostika.-Toshkent, “Mumtoz so‘z”-2010.

25. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

IV. Internet saytlar

26. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

27. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

28. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

29. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyonET


II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna: “Internetning multimedaniy muloqot maydoni” fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.



Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Mavzuga oid tushunchalar tahlili”

Tushuncha	Xal qiluvchi kuch	Samarasi nimada aks etadi	Yondashuvni ilgari surgan olimlar
<i>Postindustrial jamiyat</i>			

<i>Axborot jamiyati</i>			
<i>Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot</i>			
<i>Virtual jamiyat</i>			

Izoh:Bo‘sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

Metodni amalga oshirish tartibi:

➤ o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matn tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

➤ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

➤ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn
<i>“V” – tanish ma’lumot.</i>		
<i>“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak</i>		
<i>“+” bu ma’lumot men uchun yangilik</i>		
<i>“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?</i>		

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi

Maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni 5 daqiqa davomida sinchiklab o‘rganish talab etiladi. .

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi guruh a’zolarini o‘qilgan ma’lumot haqida fikr almashinish imkoniyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.

3. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarining xar biri o‘qigan ma’lumot haqida fikr almashinish imkoniyatini beradi. Bu vazifa uchun 10daqiqa vaqt beriladi.

4. Barcha dastlab shakllangan guruxlarga ishtirokchilar qaytadi va fikr almashingan ma’lumot yuzasidan boshqa guruxlarga berish uchun savol shakllantiradi.

5. Xar bir guruxdan 1 kishi savol beradi, va to‘g‘ri javob uchun 1-3 gacha ball qo‘yiladi.

6. Trener-o‘qituvchi barcha guruhlar to‘plagan ballarni umumlashtirib, g‘olib guruhni e’lon qiladi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa: Olingan materialni mazmunini tushunib olishga harakat qiling, so‘ng guruhda muhokama qiling

<p>1- guruhga vazifa</p>	<p>Multiskript bu axborot uzatishning o'ziga xos shakli bo'lib, bir tomondan katta hajmdagi videomateriallar bilan ishlashni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan o'z ichiga matn, audio va video kabi bir qancha mediaviy formatlarni oladi. Bizni qiziqtirgan videotasma fragmenti hamda bu fragmentga tegishli transkriptni tez va katta aniqlikda tanlab olish mumkin. Multiskript o'z ichiga uchta blokni oladi – pleyer, “stenogramma” va “mazmun”. Videomaterialni ko'rish uchun pleyer tagida joylashgan “Play” piktogrammasini bosish kerak. Videotasmaning bizni qiziqtirgan fragmentini ko'rishni uch yo'l bilan amalga oshirsa bo'ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - pleyer tagida joylashgan kursor yordamida; - “Stenogramma” blokida mant fragmentini bosib; - “Mazmun” blokida sarlavhani aktivlashtirish orqali
<p>2- guruhga vazifa</p>	<p><i>Slayd-shou. Fotolentadan shunisi bilan farq qiladiki, unda suratlar fotofilm rejimida mustaqil ravishda varaqlanadi. Suratlar ssenariy asosidagi ketma-ketlikda qo'yiladi. Slayd-shou ovoz bilanbirgalikda audio-illyustratsiya elementlarini, ya'ni audiotsitatalar, shovqin, ovozli effektlar, axborot bilan to'yintirilgan matnni o'z ichiga olishi mumkin. Vizual ketma-ketlik ixtiyoriy. Ular voqea joyidan olingan suratlar yoki arxiv kadrlari, hujatlar, xaritalar, skrinshotlar, karikaturalar va h.k. bo'lishi mumkin. Bu texnologiya reportaj, ocherk, ba'zida yangiliklarni illyustratsiya qilish uchun kerak.</i></p>
<p>3- guruhga vazifa</p>	<p><i>Audioslayd-shou – zamonaviy jurnalistikaning multimediyaviyligi sabab yaratilgan fotoillyustratsiyalashtirishning sintetik varianti bo'lib, mustaqil janrga aylandi. Bu tushuncha 2000 yillarda paydo bo'lgan. Ba'zi fotograflar fotoreportajlarining taqdimoti uchun slaydshoulardan foydalanib, unga tadbirda yozib olingan ovozni qo'llaganlar. Keyinchalik bu usuldan katta nashriyotlar foydalana boshladilar. Audioslayd-shou tanlab olingan fotosuratlar va ularga qo'yilgan ovozdan iborat. Ovoz sifatida musiqiy kompozitsiya yoki muallif o'qigan matn bo'lishi mumkin. Mazmunning asosi bo'lib, tashqi shovqin, ovozli effekt, audiotsitata yordamida berilgan hikoya xizmat qilishi mumkin. Vizual qator sifatida voqea sodir bo'lgan joydan olingan suratlar, yoki arxiv kadrlari, hujatlar, karikaturalar va h.k. olinishi mumkin.</i></p>

- *Panoramali fotografiya – obzor burchagi katta bo'lgan fotografiyadir. Ommaviy voqealarni yoritishda, obyektlarni, peyzaj, joylarni tasvirga olishda ularning masshtabini ko'rsatishda aktualdir.*
- *Interaktiv foto – shunday fotografiyaki, unga maxsus metkalar qo'yilgan bo'lib, ularni bosganda matn, video, ssilka, ijtimoiy to'rlarning statuslari chiqadi.*

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-мавзу. Психологик хизматни ташкил этиш. Таълим соҳасидаги психологнинг бурчи ва мажбуриятлари. (2 соат).

РЕЖА:

1. Психологик хизматни ташкил этиш
2. Таълим муассасаларида психологик хизмат амалиётига қўйилган талаблар.
3. Умумтаълим мактабларида психологик хизмат амалиёти.

Tayanch tushunchalar: Psixologik xizmat, amaliyotchi psixolog, shaxs, kasbiy yetuklik.

1. Psixologik xizmatni tashkil etish

Psixologik xizmat fani shakllanishining nazariy-ilmiy metodologik asoslari umumiy psixologiya fani shakllanishi bilan bog'liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Albatta, psixologik xizmat fani dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo'lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, psixologik xizmat fani haqidagi dastlabki mushohadalar eramizdan oldingi davr mutafakkirlari Fales (er.o.VII-VI asrlar), Aflotun (er.o.V-IV asrlar), Anaksimion (er.o. V asr), Geraklit (er.o. VI-V asrlar), Demokrit (er.o. V-IV asrlar), Epikur (er.o.V-IV asrlar) Galen (er.o. II asr) kabilar nazarida o'sha davr uchun muayyan ma'noda ilmiylik kashf etgan mulohazalarni alohida ta'kidlash joiz.

Qadimgi dunyoning bir muncha keyingi rivojlanish davrlarida ham tibbiyot, fiziologiya, fizika, mantiq kabi fanlar tizimidagi yangi kashfiyotlar

inson psixologik holatini adekvat tushunish va tavsif etish bo'yicha ilmiy yondashuvlarga asos solindi. Jumladan, rimlik shifokorlar Gippokrat (er.o. V asr), Galen (er.o. II asr), Demokrit (er.o. V-VI asr), Epikur (er.o. IV-III asr), Demokrit (er.o. V-IV asr), Sokrat (er.o. V-IV asr) kabi mutafakkirlarning mushohadalari dastlabki psixologik xizmat tushunchalarining shakllanishiga turtki bo'ldi. Jumladan, "psixika", "ong" tushunchalari tibbiy fiziologik bilimlar bilan bir muncha sayqal topdi. Ayni paytda fransuz olimi R.Dekard (1596-1650) tomonidan individ xulq atvorining reflektorlik tabiatiga xos jihatlarning ilk bor kashf etilishi va uning keyinchalik rus olimlari I.S.Sechenov va I.P.Pavlovlar tomonidan o'ziga xos ilmiy asoslar bilan rivojlantirilishi insonning psixologik ta'sir doiralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Nemis mutafakkiri Leybnits (1646-1716), ingliz faylasuflari Jon Lokk (1632-1704), Gartli (1705-1757), fransuz olimi Didro (1713-1784) kabilar tomonidan psixologiyada assotsiativ qonuniyatlar haqidagi ta'limotlarning yaratilishi psixologik bilimlarni yanada takomillashuvini ta'minlashga xizmat qildi. Jumladan, psixologiya fanining eksperimental, psixoanolitik, bixevioristik, empirik, geshtalt, psixogenetik, gumanistik, biogenetik, sotsiogenetik kabi yo'nalishlari tomonidan olingan ma'lumotlar tizimi hozirgi zamon psixologik xizmat fani ildizlarining yaratilishiga asos bo'ldi. Jumladan, o'tmishdagi tarixiy davr sivilizatsiyasi vakillaridan biri Aflotunning (eramizdan oldingi 428/427—347-yillar) xizmatlari shundaki, u jonning qismlari to'g'risidagi dastlabki psixologik tushunchani yaratdi. Shunday qismlardan aql-idrokni, jasoratni va orzu-istakni alohida ajratib ko'rsatdi va ular tananing turli qismlari (bosh, ko'krak, qorin bo'shlig'i)da joylashgan bo'ladi, degan fikrni ilgari surdi. Uning «g'oyalar» ko'rinmas, lekin tabiatning narigi tomonidagi oliy dunyoni tashkil etuvchi azaliy o'zgarmas mohiyatlar ekanligi to'g'risidagi ta'limoti katta ahamiyatga ega bo'ldi. Jonning aql-idrokli qismi omonat tanaga jo bo'lgunga qadar ana shu dunyoga daxldor. U tanaga jo bo'lib olgach, tug'ilishga qadar ko'rilgan narsalarni eslay boshlaydi. Xotiralar qanchalik yorqin bo'lsa, unda haqiqiy bilimlar shunchalik ko'p ochilib boraveradi, degan fikrni ilgari surdi.

Aflotun, psixologiyada dualizmning, ya'ni moddiy va ruhiy olamni, tana bilan psixikani ikkita mustaqil va antogonistik ibtidolar tarzida tushuntiradigan ta'limotning asoschisiga aylandi. Aflotunning dualizmiga

qaraganda uning shogirdi Arastu (eramizga qadar 384-322 yillar) ning ta'limoti ancha muvaffaqiyatli ravishda ilgarilab ketdiki, u psixologik fikrlarni tabiiy-ilmiy asosda qayta ko'rib, uni biologiya va tibbiyot bilan bog'ladi. Arastuning «Jon to'g'risida»gi asari dastlabki psixologik tushunchalarning bir muncha takomillashuvini shakllantirdi. Arastu ruhiy faoliyatni o'rganishning tajriba va obyektiv metodini insonga psixologik yondashuv mahsuli sifatida tahlil qilish g'oyasini ilgari surdi. Shu asnoda Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib ruh va jonni tananing ajralmas qismi ekanligini targ'ib qildi. Jon qismlarga bo'lina olmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanish, his etish, harakatga keltirish, akl-idrok kabi turlariga oid qobiliyatlarida namoyon bo'lishini asoslab berdi. Arastu ilk bor ilgari sezgi a'zolariga ta'sir o'tkazgan narsalar obrazlarining tasavvur tarzida mavjudligini kashf etdi. U shuningdek bu tasvirlar o'xshashligi, turdoshligi va keskin farqlanishi kabi uchta yo'nalishda birlashuvini ham ko'rsatdi, bu bilan psixik hodisalar assotsiatsiyasi (bog'lanishi)ning asosiy turlarini ochib berdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan imkoniyatlarini faqat o'zining xususiy faolligi orqali ro'yobga chiqarishiga asoslangan holda xarakterning real faoliyatida shakllanishi to'g'risidagi nazariyani ilgari surdi. Bu nazariya insonga psixologik xizmat ko'rsatish fani bilan bog'liq dastlabki ilmiy tamoyillarning yaratilishi bilan bevosita aloqadordir.

Bundan tashqari eramizdan oldingi II asrda rimlik vrach Galen fiziologiya va tibbiyotning yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik negizi haqidagi tasavvurlarni boyitdi va ong tushunchasiga yaqinlashib keldi. U diqqat, xotira, mulohaza ishtirok etadigan harakatlarning kishi, masalan, uyqusida bajaradigan harakatlardan chegaralanishni ko'rsatib beradi. Keyinchalik bu nuqtai nazar psixologik xizmat fani tarixida introspeksionizm nomi bilan atala boshlandi.

XVII asr biologik va psixologik bilimlar taraqqiyotida yangi davrni ochib berdi. Chunonchi, Fransuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g'ayriixtiyoriy) tabiatga egaligining kashf etilishi ana shu g'oya bilan uzviy bog'langandir. Olim yurakdagi mushaklarning ishlashi qon aylanishining ichki mexanikasi bilan boshqarib turilgani kabi xulq-atvorning hamma darajalaridagi boshqa mushaklarning ishlashi ham xuddi soat mexanizmida millarining aylanishiga qiyoslovchi psixologik taxminni ilgari surdi. Zero, Dekart mushaklar tashqi turtkilarga ruhning hech qanday

aralashuvisiz, asab tizimining tuzilishi e'tibori bilan ham javob qaytarishga qodirligini ham isbotlab berdi. Binobarin, Dekart o'zining «asab mashinasi» g'oyasi bilan sezgilar, assotsiatsiyalar, kuchli ehtiroslar qanday yuzaga chiqishi mumkinligini tushuntirib berdi.

2.Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotiga qo'yilgan talablar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlod kelajagini har tomonlama takomillashgan va ijtimoiy taraqqiyot talablariga to'la-to'kis javob bera oluvchi ta'lim tizimining muvaffaqiyatli tatbiqisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ta'limning muvaffaqiyati esa tashkil etilgan o'quv faoliyatining har bir o'quvchi shaxsiga, uning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissi bilan belgilanadi. Bu mas'uliyatli vazifani, ayniqsa, bugungi kunda psixologik xizmatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qolaversa, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda, o'quvchilarni u yoki bu kasbga yo'naltirishdagi o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarini va qiziqishlarini aniqlashda, ularning o'z-o'zini anglashlarida, o'quv jarayoni, o'quvchilar jamoasi, o'quvchi-o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq barcha muammolarni bartaraf etish yo'llarini izlashdagi psixolog olimlarning bugungi yutuqlari haqida yetarli dalillar mavjud. Masalan, I.V.Dubrovina tadqiqotlarida maktabda psixologik xizmatni tashkil etishdagi nazariy va amaliy jihatlarning asoslanishi, L.I.Bojovichning o'quvchi shaxsi va uning maktab yoshidagi shakllanish bosqichlarini psixologik tasniflovchi empirik ma'lumotlari, A.G.Asmolovning o'quvchi faoliyati va ustanovka uyg'unligini izohlab beruvchi tadqiqotlari, D.I.Feldshteynning ontogenezdagi rivojlanuvchi shaxs ijtimoiy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy-tadqiqiy ko'rsatmalari, YE.A.Klimovning o'quvchini kasbga yo'naltirishdagi individual uslubni o'zida mujassamlashtirgan psixologik ishlanmalari, V.S.Merlinning o'quvchi shaxsidagi individual va sotsial tipik xususiyatlar psixologiyasini izohlab berishga qaratilgan asarlari, E.G'.G'oziyevning ta'lim muassasalaridagi

psixologik xizmat vazifalarini qayd etishga bag'ishlangan ko'rsatmalari, M.G.Davletshinning O'zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holati va vazifalarini talqin qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy fikr-mulohazalari, G'.B.Shoumarovning Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi bilan bog'liq yangiliklar, muammolar va yechimlarga bag'ishlangan nazariy-ilmiy va ijtimoiy-amaliy ahamiyatga molik fikr-mulohazalari, SH.R.Barotovning ta'limda psixologik xizmat amaliyotiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari, B.R.Qodirovning O'zbekistondagi iqtidorli va iste'dodli bolalarni tanlash va tarbiyalashga qaratilgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy asarlari shular jumlasidandir.

Ayniqsa, bugungi kunda o'zbekistonlik psixologlar guruhi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat, xalq ta'limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqidagi Nizom"ning ishlab chiqilishi va uni Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi O'zbekistondagi psixologik xizmat tizimining rasmiy tarzda "jonlanishi" va taraqqiy etib borishi uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ushbu "Nizom" ta'lim muassasalarida tatbiq etilajak psixologik xizmat tizimining asl maqsadi, mazmuni, mohiyati, ahamiyati, vazifalari va asosiy yo'nalishlari haqida yetarlicha tasavvur hosil qilish va shu tasavvur asosida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun o'ziga xos qo'llanma va yo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Xuddi ana shu "yo'llanma" asosida bugungi kunda Respublikamiz miqyosida talaygina ta'lim muassasalarida psixologik xizmat tizimi tashkil etilgan.

Darhaqiqat, Respublika xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi, dastavval, o'quvchi shaxsini har tomonlama tushunib tahlil qilish va rivojlantirish borasida o'ziga xos yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, hamma rivojlangan davlatlarda va hamma zamonlarda ham inson omilidan unumli foydalanish muammosi eng dolzarb muammo hisoblangan. Ushbu muammoni bartaraf etish esa eng birinchi navbatda o'quv maskanlaridagi har bir o'quvchi shaxsiga, o'quvchilar jamoasiga bo'lgan psixologik yondashuvning mazmuniga, mohiyatiga va saviyasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan psixologik xizmat tizimi uchun mo'ljallangan "Psixologik xizmat Nizomi"ga kiritilgan barcha

vazifalarni ma'lum ma'noda maktab o'quvchisining psixologik himoyalaniishini shakllantirishga qaratilgan vazifalar sifatida talqin qilish mumkin. Chunki, psixologik xizmat jarayonida har bir o'quvchini o'zini o'zi anglashga, o'zidan o'zi unumli foydalanishga, o'z individual imkoniyatlarini namoyon qilishga va rivojlantirishga, faoliyat jarayonida sodir etilishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarga va ayrim tanglik holatlariga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan tadbirlar ko'lami muntazam ravishda amalga oshirilib boriladi. Bularning barchasi esa ayni paytda, psixologik muhofaza imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan uslubiy vositalar sifatida xarakterlanadi. Shunga muvofiq, bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari o'quvchi faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik muhofazani takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni amalga oshirmoqdalar.

1. Har bir sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitning har bir o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sirini tarkib toptirish.

2. Har bir o'quvchining o'quv faoliyatiga nisbatan o'z-o'ziga adekvat baho bera olishini ta'minlash.

3. Har bir o'quvchining o'z-o'zini bilishi, anglash, idora qilish va o'z-o'zidan ijtimoiy ma'noda muvaffaqiyatli qoniqish hosil qilishi uchun shart-sharoitlarni hozirlash.

4. Har qanday o'quv faoliyati talablarini bajarish jarayonida o'quvchining meyoriy-hissiy holat chegarasidan chiqib ketmasligi uchun barcha tadbirlarni qo'llash.

5. O'quvchining faoliyat talablariga va aksincha, faoliyat talablarining o'quvchi shaxsiga moslasha olishlarini ta'minlash.

6. O'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-jamoa o'rtasidagi hamkorlik faoliyati uchun muhim muvaffaqiyatli munosabatlar o'rnatilishi borilishini muntazam nazorat ostiga olish.

7. O'quv faoliyati talablarini muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi o'quvchi shaxsi faolligi bilan bog'liq individual uslub imkoniyatlarini o'rganish va qaror toptira borish.

8. Har bir o'quvchini maktabga qabul qilishda u yoki bu fan bo'yicha chuqur o'zlashtiruvchi sinflarga jalb etish orqali kasb tanlashga yo'llashda tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar berib borish.

9. K.K. Platonovning "Shaxs strukturasi" usuli asosida va unga SH. Barotov tomonidan ayrim o'zgartirishlar kiritilgan holda qayta ishlab

chiqilgan “Shaxs kartasi” ustida ish olib borish (har bir o‘quvchi bilan, albatta).

10.YE.A.Klimovning kasblarni tanlashga oid ishlab chiqqan metodikasining SH.Barotov tomonidan o‘zbek tiliga moslashtirilgan variantini qo‘llash asosida har bir o‘quvchi uchun tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish.

11.E.G‘.G‘oziyev tomonidan tavsiya etilgan “Ta’lim muassasalari psixologining vazifalari” asosida ilmiy-amaliy ish faoliyatini rejalashtirish.

12.Umumiy psixologik xizmat Nizomi asosida psixo-profilaktik, psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish.

Maktab amaliyotchi psixologlari faoliyati muayyan talab asosida ishlab chiqilgan tegishli yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar va ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida tashkil etiladi.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri haqida qisqacha izoh berish mumkin:

I.Ilmiy-nazariy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha amaliyotchi psixologning quyidagi vazifalarni bajarishi talab qilinadi:

- psixologik xizmatning metodologik asoslari haqida bilim, tushuncha va tassavurga ega bo‘lish;
- o‘quvchi shaxsiga psixologik yondashuv uchun samarali foyda bera oluvchi psixologik usullar, tamoyillar va metodikalarni ajrata olish;
- umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, tibbiy psixologiya fanlari bo‘yicha tegishli bilimlarni o‘zlashtirish;
- O‘zbekistondagi psixologik xizmat konsepsiyasi haqida axborotga ega bo‘lish;
- o‘z-o‘zini ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirish bilan bog‘liq kunlik, haftalik, oylik va yillik ish rejalarini tuzish va bajarish.

II.Ilmiy-tashkiliy faoliyat yo‘nalishlari quyidagi vazifalarni bajarishni o‘z ichiga oladi:

- har kunlik, haftalik, oylik va yillik taqvimiy ish rejasi tuzish, uni hududiy psixologik xizmat markazi tomonidan tasdiqlatish;
- psixologik xizmat xonasini kerakli jihozlar, ko‘rgazmalar va boshqa barcha materiallar bilan to‘ldirish;

- Maktabdagi har bir o‘quvchi uchun “Shaxs psixologik kartasi”ni tuzish va shu ma’lumotlar (ko‘rsatkichlar) asosida tegishli psixologik tadbirlarni belgilash;

- ota-onalar, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilri va maktab rahbarlari bilan bajariladigan ishlar rejasini tuzish;

- har bir sinfdagi o‘quvchilar guruhi, alohida referent, rasmiy va norasmiy guruhlar, liderlar va ayrim “ajralib qolgan” o‘quvchilar bilan individual ish olib borish rejasini tuzish;

- o‘quvchilarni maktabga qabul qilish va kasbga yo‘llash bilan bog‘liq psixologik ishlar ko‘lamini belgilash;

III. Ilmiy-tadqiqiy yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi vazifalarning bajarilishi nazorat qilinadi:

- maktab amaliyoti uchun zarur psixologik usullarni qo‘llash va olingan ma’lumotlarni qayta ishlash asosida tegishli ilmiy xulosalar chiqara olish;

- psixologik qonuniyatlarni bilish va shu asosda namoyon bo‘luvchi yosh xususiyatlari, individual xususiyatlar va o‘quv motivlariga xos jihatlarni muntazam o‘rganib borish, tadqiq qilish, fikr-mulohazalar yuritish;

- o‘quvchi faolligiga, o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish orqali o‘z-o‘zini himoya qilishga nisbatan ijobiy yoki salbiy ta’sir etuvchi omillarni obdon o‘rganish, tadqiq qilish va tadbirlarni belgilash;

- o‘quv faoliyati samaradorligini aniqlashga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va tadqiq qilish;

- psixologik yondashuv samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi mavzular, kuzatishlar asosida izlanishlar olib borish, u yoki bu o‘quvchida yuz berayotgan o‘zgarishlar sababini o‘rganib borish;

- o‘z kuzatishlari va amaliy faoliyat natijalari bo‘yicha ilmiy-amaliy anjumanlar uchun ma’ruzalar tayyorlash.

IV. Ilmiy-uslubiy yo‘nalish vazifalarini quyidagi tartibda belgilash ko‘zda tutiladi:

- psixologiya fanida tan olingan va muayyan talablar asosida modifikatsiya qilingan usullarni qo'llay olish va ulardan ilmiy maqsadlar yo'lida umumiy foydalanishni ta'minlash;

- har bir o'quvchi shaxsining o'ziga xos individual-psixologik imkoniyatlariga mos yondashuv yo'llarini to'g'ri belgilay olish;

- shaxs va shaxslararo munosabatlar qaror topishi bilan bog'liq ijtimoiy psixologik muhitni to'g'ri tashkil qilish va yo'naltira olish;

- psixodiagnostik, psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlar ko'lamini ilmiy jihatdan puxta va samarali tarzda rejalashtirish.

- qo'llanilgan va qo'llanilishi lozim bo'lgan usullar samaradorligini muntazam nazorat qilish;

V. Ilmiy-amaliy yo'nalishdagi vazifalar ko'lami quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bolalarni maktabga qabul qilishda faol ishtirok etish;

- har bir bola iqtidorini aniqlash va unga mos ta'lim tarbiya yo'nalishlarini belgilash;

- o'quvchining kasbga yo'nalishini belgilash va maqsadli psixologik yondashuv asosida uni rivojlantirish.

- har bir sinfdagi shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish va tegishli tavsiyalar berish.

- har bir bolaning yosh, individual-psixologik, hissiy-irodaviy xususiyatlarini aniqlash asosida tegishli tadbirlar belgilash va uni amalga oshirish;

- differensial (tabaqalashgan) ta'limga, to'garaklarga jalb qilinuvchi o'quvchilarni belgilashda faol ishtirok etish;

- darsning psixologik tahlili asosida ayrim o'quvchilarga, sinf rahbarlariga va fan o'qituvchilariga tegishli maslahatlar berish;

- ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirishda faol ishtirok etish;

- aqliy va nutqiy taraqqiyotida nuqsoni bor bolalar bilan individual ishlar olib borish;

- maktab tomonidan qabul qilingan qo'shimcha o'quv dasturlarini tuzishda faol ishtirok etish;

■ har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini anglashi asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishga nisbatan namoyon bo‘luvchi individual ish uslubini o‘rganish va rivojlantira borish;

■ o‘quv faoliyati jarayonida namoyon bo‘luvchi har bir o‘quvchidagi meyoriy hissiy holatning yaratilishini ta‘minlash va uni nazorat qila borish;

■ o‘quvchining o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga va faoliyatning ijtimoiy qimmatiga nisbatan muvaffaqiyatli munosabatlarining o‘rnatilishini nazorat qila borish;

■ subyektiv ijtimoiy ehtiyojlarning anglanishi va qondirilishini nazorat qila borish;

■ har bir o‘quvchidagi faoliyat va individual imkoniyatlar mutanosibligining ta‘minlanishini kuzatib borish;

■ faollik va ijtimoiy ustanovka adekvatligining ta‘minlanishini nazorat qila borish.

Xullas, yuqoridagi yo‘nalishlarning barchasi maktabda psixologik xizmat tizimini amalga oshiruvchi amaliyotchi psixologlar faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Ayni paytda, ushbu yo‘nalishdagi vazifalarning bajarilish jarayoni “Nizom” da belgilangan umumiy amaliy vazifalar – psixodiagnostik, psixologik maorif, psixoprofilaktik, psixokorreksion va psixologik maslahat kabi amaliy ishlar ko‘lamining yuqori saviyada olib borilishini ham taqozo etadi. Bu vazifalarning to‘liq mazmuni va matni “Nizom ”da batafsil bayon etilgan. Ushbu “Nizom”dagi vazifalarga qo‘shimcha ravishda “psixologik himoyalaniшни yanada mustahkamlash bilan bog‘liq ayrim ishlarni ham kiritish tavsiya etiladi. (SH.Barotov - 1997)

Masalan: Psixodiagnostik ishlar ko‘lami bo‘yicha “Nizom”da ko‘rsatilgan 18 ta vazifaga (“Nizom” ning 6-9 betlariga qarang) qo‘shimcha qilib, yana quyidagi 3 ta vazifa (ya‘ni 19-20 va 21 vazifalarni)ni bajarish amaliyotchi psixologlarga yuklatiladi: o‘quv faoliyatining tashkil etilishi va o‘quvchining individual imkoniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro adekvatlikning qay darajada qaror toptirilayotganligini aniqlash (1-qo‘shimcha topshiriq).

Har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish bilan bog‘liq individual uslubini aniqlash (2-qo‘shimcha topshiriq). O‘quv faoliyati jarayonida xar bir o‘quvchining o‘z-o‘zini muvaffaqiyatli idora

qilishining ta'minlanishi bilan bog'liq meyoriy hissiy faollik ko'rsatkichlarini aniqlash. (3-qo'shimcha topshiriq).

“Nizom”dagi psixologik maorif ishlar (3-4-betlarga qarang) qatoriga esa qo'shimcha 2 ta vazifani kiritdik. YA'ni “Nizom”da jami 7 ta vazifa qayd etilgan bo'lsa, 8-vazifa qilib ota-onalar, fan o'qituvchilari va sinf rahbarlariga psixologik muhofaza imkoniyatlari va istiqbollari xususida maxsus ma'ruzalar tashkil qilish; 9-vazifa qilib esa maktab devoriy ro'znomasida “O'z-o'zini o'rganish” rukni ostida muntazam ravishda turli tavsiyalar berib borish topshirig'i yuklatiladi.

“Nizom” da qayd etilgan 17 yo'nalishdan iborat psixoproflaktik ishlar (4-5-betlar) qatoriga 18-qilib “Psixologik himoyalani ko'rsatkichi nihoyatda past o'quvchilarning o'zlari, ota-onasi, sinf va fan o'qituvchilariga alohida ko'rsatmalar berish; 19-vazifa qilib esa “har bir o'quvchiga beriladigan o'quv topshiriqlarining, o'quv yuklamalarining, dastur va darsliklardagi ko'rsatmalarning o'quvchini hissiy zo'riqishlarga (stress holatlariga) olib kelmaslik nuqtai nazaridan tahlil qilish, kerak bo'lsa tavsiyalar, yo'llanmalar berish” kabi maxsus yo'naltirilgan topshiriqlar kiritiladi.

IV “Nizom”da belgilab berilgan “Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar” (9-11-betlar) qatoriga esa 9-ish sifatida “Har bir o'quvchi uchun xarakterli bo'lgan faoliyatdan ijtimoiy qoniqishga nisbatan psixologik muhofaza meyorlari asosida tarkib toptirish lozim bo'lgan rivojlantiruvchi va korreksion tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish” vazifasi kiritiladi.

“Nizom”dagi V psixologning konsultativ (psixologik maslahat) ishlari (11-12-betlar) qatoriga 9-10 ish qilib, “Har bir o'quvchi faoliyatida namoyon etilgan psixologik muhofaza ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, muntazam ravishda tegishli individual maslahatlar berib borish va o'qituvchilarga o'quvchi individual uslubini (o'quv faoliyatiga nisbatan, albatta) tushunish, tahlil qilish va rivojlantirib borishga qaratilgan tavsiyalar berib borish” vazifasini yuklatish mumkin.

Demak, ta'lim muassasalarida yuqoridagi vazifalarni muntazam ravishda bajarib borish uchun qo'yilgan talablardan kelib chiqib amaliyotchi psixologlar tegishli darajada psixologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari shart va zarurdir.

3. Umumta'lim maktablarida psixologik xizmat amaliyoti

Bugungi globalashuv jarayonida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar tarbiyasiga va ularning ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiyroq e'tibor berish masalasiga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda, chunki kichik maktab yoshi yoki o'smirlik davri har bir bolaning butun umri davomidagi o'ziga xos ijtimoiy fundament vazifasini o'taydi. Ushbu "tamoyil" ning qanchalik mustahkamligi bolaning individual va intellektual taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirishini maktabdagi psixologik xizmat amaliyotisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, maktabga psixologik xizmat amaliyoti turli davlatlarda turlicha shaklda tashkil etilganligi bilan xarakterlidir. Chunonchi, har bir davlat o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib psixologik xizmat amaliyoti mexanizmini yo'lga qo'yganligini ko'ramiz. Shunday bo'lsa-da, mazmunan ushbu jarayonga yondashuv mezonini bir xil ekanligini kuzatish mumkin. U ham bo'lsa o'quvchilar bilan tizimli tarzda olib boriladigan psixoprofilaktik, psixodiagnostik, psixokorreksion va psixokonsultativ ishlar ko'lamining mavjudligidir. Maktabda tahsil olayotgan har bir o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi bilan olib boriladigan ushbu yo'nalishlarning barcha, avvalo, o'quvchi shaxsi tarbiyasiga hamda taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Umumta'lim maktablarida psixologik xizmatning tashkil etilishi uning mazmuni va asosiy vazifalari haqida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan chop etilgan "Psixologik xizmat Nizomi"da batafsil ko'rsatmalar berilgan. Ushbu ko'rsatma va tavsiyalar asosida bugungi kunda maktabda psixologik xizmat amaliyoti olib borilmoqda (mazkur "Nizom"ga qaralsin).

Umumta'lim maktablarida psixologik xizmatning zarurligi har bir o'quvchining o'ziga xos "betakror olam"ga adekvat bo'lgan tarbiya usullarini qo'llay bilish, har qanday vaziyatda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri yo'naltira olish, o'quvchini maktab ta'limiga qabul qilishda va uni kasbga yo'nalganligini belgilashda to'g'ri yo'l tuta bilishda yanada yaqqolroq ko'rinadi. Chunki guruh rahbari yoki fan o'qituvchisi o'quvchining psixologik tabiati va imkoniyati haqida to'laqonli bilimga ega emasligi tabiiy. Bu ishni esa mukammal psixologik bilim va malakalarga ega bo'lgan professional mutaxassislar amalga oshirishi mumkin. Qolaversa,

shaxs taqdiri bilan hazillashib bo'lmaydi. Birgina aytilgan noo'rin so'z yoki noto'g'ri harakat o'quvchining butun hayotini, xulq-atvorini yoxud hayotga, odamlarga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Psixolog umumta'lim maktabida xizmat ko'rsatar ekan, avvalo undan har bir yosh davriga xos bo'lgan psixologik qonuniyatlarni to'g'ri baholay olishi va shu qonuniyatlarga tayangan holda o'quvchi faoliyatini boshqarishi talab qilinadi. Har qanday psixologik xizmat u yoki bu o'quvchidagi psixologik zaxiralarni o'rganib, uni ta'lim va tarbiya samaradorligini ta'minlashga yo'naltira olishi shart. Shuningdek, psixologik xizmat bolalardagi iqtidor kurtaklarini oldindan anglab, uni rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib bera olishi kerak bo'ladi.

Qolaversa, har bir bolaning taqdiri to'g'ri tarbiyasi va o'ziga xos psixologik taraqqiyoti uchun barcha ta'lim muassasasi rahbarlari qatori, eng avvalo, maktab psixologiga ham alohida mas'uliyat yuklatilganligini esdan chiqarmaslik kerak bo'ladi.

Demak, maktab psixologi har bir yosh davri va uning o'ziga xos psixologik imkoniyatlari, qiyinchiliklari, muammolari va istiqbollari haqida ham to'g'ri fikr olishi zarur.

Endi ushbu yosh davrlarining psixologik mohiyati va unga mos bo'lgan psixologik xizmat yondashuvining muayyan imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz.

NAZORAT SAVOLARI

1. Psixologiya xizmat fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Ta'lim sohasidagi psixologning burchi va majburiyatlari nimalardan iborat?
3. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotiga qo'yilgan talablar qaysilar?

Adabiyotlar ro'yxati

1. David Spencer "Gateway", Students book, Macmillan 2012.
2. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
3. H.Q. Mitchell "Traveller" B1, B2, MM Publications. 2015. 183.

4. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
5. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175. www.google.com www.ziyonet.uz
www.arxiv.uz

2-мавзу. Психологик хизмат ҳақида Низом. Таълим соҳасидаги психолог фаолиятининг меъёрий ҳужжатлари.

1. Психологик хизмат ҳақида Низом
2. Психологик хизматнинг асосий йўналишлари
3. Психологик хизматнинг таркибини шакллантириш ва унинг фаолиятини ташкил этиш.

Tayanch iboralar: psixologik ma'rifat, psixologik-pedagogik tashxis, xavfli guruh, psixologik profilaktika, psixologik maslahat.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 iyundagi 109-sonli "Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'qitish bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 23-son, 184-modda) ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarda Psixologik xizmat (keyingi o'rinlarda Psixologik xizmat deb ataladi)ning maqsadi, vazifalari hamda faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

1. Psixologik xizmat O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi (keyingi o'rinlarda Respublika tashxis Markazi deb yuritiladi) ning tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

2. Psixologik xizmat "psixologiya" ixtisosligi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan psixolog yoki qayta tayyorlashdan o'tib, "amaliyotchi psixolog" malakasiga ega bo'lgan oliy ma'lumotli pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi.

II. Psixologik xizmatning maqsad va vazifalari

3. Psixologik xizmatning maqsadi – shaxsning har tomonlama shakllanishi, rivojlanishi, samarali ijtimoiylashuvi va moslashuvi, bolalar

rivojlanishining barcha yosh davrlarida psixologik salomatligini muhofaza qilish uchun psixologik-pedagogik shartsharoit yaratishdan iborat.

4. Psixologik xizmatning vazifalari: har bir bolaning individual xususiyatlari, qiziqishlari, layoqat va qobiliyatlariga muvofiq rivojlanishida uning psixologik imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish; o'quvchining intellektual, shaxsiy, ijtimoiy rivojlanishidagi og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash, tuzatish va oldini olish; umumta'lim maktablarining o'quvchilari va bitiruvchilariga kasbiy va hayotiy o'zligini anglashida ularning shaxsiy qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, salomatligini inobatga olgan holda psixologik yordam ko'rsatish; ta'lim jarayoni barcha subyektlarining psixologik salomatligini muhofaza qilish, o'quvchilar jamoasi va pedagogik jamoada sog'lom psixologik iqlimni saqlash, kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning eng maqbul yechimlarini topish; muassasada o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi, o'smirlar va yoshlar xulqidagi og'ishlar, shaxsning oilada va jamiyatda moslashuvi va ijtimoiylashuvi muammolari bo'yicha psixologlar, pedagoglar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning samarali hamkorligini ta'minlash; "xavfli guruh"ga kiruvchi o'smirlarni psixologik qo'llab-quvvatlash, ular uchun tegishlicha psixologik tavsifnomalarni rasmiylashtirish va zarur bo'lganda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga taqdim etish, tarbiyasi og'ir o'smirlarni (huquqbuzarlarni) ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish; iqtidorli bolalar va o'smirlarning ijodiy rivojlanishiga imkon berish maqsadida psixologik kuzatish va qo'llab-quvvatlash.

III.Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari

5. Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

a) psixologik ma'rifat – psixologik bilimlarni egallash maqsadida pedagog va o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar)ning shuningdek, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning psixologik madaniyatini oshirish.

Psixologik ma'rifatning vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarga eng oddiy psixologik bilimlarni berish va ularning bu bilimlarni egallashga erishish, tengdoshlari va kattalar bilan shaxslararo munosabatlarga kirishish, o'zlarining shaxsiy sifatlari va xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari, layoqatlariga baho bera olish bilan bog'liq bo'lgan bilishga oid qiziqishlarini

rivojlantirish; o'quvchilarda o'quv jarayoniga, o'qituvchilar va tarbiyachilar bilan muloqotga ijobiy munosabatni shakllantirish; o'smirlar, yigit va qizlarning jinsiy tarbiyasi, ularning oila psixologiyasi va oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiyena va kasalliklarning oldini olish sohasidagi bilimlarni egallashiga erishish; har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirishda pedagoglar, tarbiyachilar, otaonalar yoki qonuniy vakillarning psixologik kompetentligini oshirish; individual suhbatlar, ochiq darslar, seminarlar va maslahatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni targ'ib qilish.

b) psixologik-pedagogik tashxis – o'quvchilarning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlari, qadriyatlar yo'nalganligi ijtimoiy ustanovkalari va munosabatlari, bilish va o'quv faoliyati motivatsiyalarini inobatga olgan holda ularning individualpsixologik va shaxs xususiyatlarini aniqlash hamda baholash.

Psixologik-pedagogik tashxisning vazifalari:

6-7 yoshdagi bolalarning boshlang'ich sinflarda o'qishga tayyorgarligini o'rganish maqsadida ularning psixologik rivojlanishi va qobiliyatlarini aniqlash; ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablariga qabul qilishda o'quvchilarning bilish va boshqa maxsus qobiliyatlarini aniqlash hamda baholash; turli psixologik tashxis metodikalari yordamida o'quvchilar bilan test-sinovlari o'tkazish va suhbatlashish, natijalarni maktabda ta'lim olish davri mobaynida "Psixologik-pedagogik tashxis daftari" da qayd etib borish; o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) ning iqtidori va potensial qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish maqsadida ulardagi iqtidorni tashxis qilish orqali aniqlash; umumta'lim muassasalari o'quvchilari va bitiruvchilarining kasbhunar, mutaxassislik va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim yo'nalishini (kasb-hunar kolleji va akademik litsey) tanlashida ularning qiziqishi, layoqati va bilish qobiliyatlarini aniqlash; tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish, ularni tarbiyalash, maktab hamda ijtimoiy muhitga moslashishini ta'minlash maqsadida individual-psixologik va shaxs xususiyatlarini aniqlash; tashxis natijalari bilan o'quvchilar, otaonalar yoki qonuniy vakillar, pedagoglarni tanishtirish, shaxsning ongli ravishda kasb-hunar tanlashini shakllantirish va rivojlantirishda ularga buning ahamiyatini tushuntirish; shaxsiy

muammolarning yechimini topish va ularga zarur psixologik yordam ko'rsatish maqsadida ota-onalar yoki qonuniy vakillar, pedagoglar (ularning roziligi bilan) bilan tashxis ishlarini olib borish.

v)psixologik profilaktika – bolalarning psixologik salomatligidagi buzilishlar, ularning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi salbiy og'ishlarning o'z vaqtida oldini olish.

Psixologik profilaktikaning vazifalari: suhbatlashish va tashxis tekshiruvlari natijalari, shuningdek, ota-onalar yoki qonuniy vakillar va pedagoglardan olingan ma'lumotlar asosida bolalarning psixologik salomatligini aniqlash; ijtimoiylashuv, ta'lim va tarbiya jarayonida shaxs shakllanishi hamda rivojlanishidagi og'ishlarning oldini olish bo'yicha choralar belgilash, bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan muloqoti hamda munosabatlarida psixologik shikast yetkazuvchi omillarni bartaraf etishga yordam ko'rsatish; asabiy-psixik zo'riqish va shaxs sifatlarining buzilishi alomatlari aniqlangan, shuningdek, addiktiv qaramlikda bo'lgan (alkogol, narkotiklar, toksik moddalarga ruju qo'yish, internetqaramlik va boshqa shu kabi holatlardagi) o'smirlarga psixologik yordam ko'rsatish; maktabgacha va umumta'lim muassasalari, mehribonlik uylari hamda oilada bolalar tarbiyasi va ta'limining psixogigiyenik shart-sharoitlariga rioya etilishini nazorat qilish, bu sharoitlar buzilgan holatlarda choralar ko'rish; bolalar va o'smirlarni o'z qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va bilimlarini tatbiq etishni xohlagan hayotiy faoliyat sohalarini anglab yetishga tayyorlash; ota-onalar yoki qonuniy vakillarga, pedagoglarga (ularning roziligi bilan) shaxslararo munosabatlarda, oilada yoki pedagogik jamoada nosog'lom psixologik iqlim muammolarini hal etishda psixologik yordam ko'rsatish, psixologik shikast yetkazuvchi omillar ta'sirini bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish.

g)psixologik korreksiya va rivojlantirish – shaxsning shakllanishi hamda rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish hamda og'ishlarni bartaraf etish, o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) muomalasi va xulq-atvoridagi buzilishlarni korreksiyalash, shaxsning psixik rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

Psixologik korreksiya va rivojlantirishning vazifalari: o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) dagi psixik jarayonlar, ijtimoiy ustanovkalar, subyektiv fikrlar va salbiy munosabatlar rivojlanishini korreksiyalash; ta'lim va

mustaqil o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligi hamda qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida ularning intellektual passivligini korreksiyalash; tarbiyasi qiyin bolalar va o'smirlarning ijtimoiy ustanovkalari, munosabatlari, xulq-atvor motivlarini, ularning maktabga va ijtimoiy muhitga yetarli darajada moslasha olmaslik holatlarini korreksiyalash; ta'lim-tarbiya jarayoni barcha subyektlari o'rtasidagi normal shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash va rivojlantirish; o'quvchilar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillariga, pedagoglarga psixologik korreksiya natijalarini, shaxsning normal rivojlanishi uchun bu natijalarning ahamiyatini tushuntirish; pedagogik jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlarini, shaxslararo munosabatlarni va ziddiyatli xattiharakatini korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish, rahbarlarning boshqaruv uslubini optimallashtirish.

d)psixologik maslahat – o'quvchilar, tarbiyalanuvchilar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillariga, pedagoglarga shaxsiy muammolar va ziddiyatli munosabatlarni konstruktiv hal etilishida psixologik yordam ko'rsatish, shaxsning ichki psixologik imkoniyatlarini safarbar qilish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Psixologik maslahatning vazifalari: maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlariga bolalarning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining yosh xususiyatlari, rivojlanishdagi buzilishlar hamda kechikishlar, ularni korreksiyalash, shuningdek, bolalarni boshlang'ich sinfda o'qishga va maktabga moslashuvga psixologik tayyorlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish; bolalarning boshlang'ich sinflardan o'rta sinflarga o'tishi, shuningdek, maktabni bitirish va bo'lg'usi kasb-hunar hamda ta'lim muassasasi (akademik litsey, kasb-hunar kolleji)ni tanlash masalalarida o'quvchilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarga maslahatlar berish; maktab-internatlar, mehribonlik uylari, shuningdek, yetim bolalar ta'lim olayotgan umumta'lim muassasalari xodimlariga ta'lim-tarbiya, bolalarning ijtimoiylashuvi va moslashuvini psixologik kuzatish masalalari bo'yicha maslahatlar berish; o'smirlar va yoshlarga kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlar, oilaviy muammolar, xulq-atvordagi og'ishlarni bartaraf etish, o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish, shuningdek, hayotiy va kasbiy o'zligini anglash masalalarida maslahatlar berish; maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasalari, mehribonlik uylari

rahbarlariga pedagogik jamoani boshqarishni optimallashtirish, qo‘l ostidagi xodimlar bilan shaxslararo munosabatlar, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni hal etish hamda sog‘lom psixologik muhitni ta‘minlash masalalarida maslahatlar berish; maslahat berish jarayonida o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilarda mustaqil ta‘lim olish, o‘zo‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini korreksiyalashga ijobiy munosabatlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

e) kasb-hunarga yo‘naltirish – o‘quvchilarning individual qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, jamiyat va mehnat bozorining muayyan kasb va mutaxassisliklarga bo‘lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularni kasbiy o‘zligini anglashlari uchun yordam berishga qaratilgan psixologik-pedagogik hamda tibbiy choratadbirlar majmui. Kasb-hunarga yo‘naltirishning maqsadi – o‘quvchilar va maktab bitiruvchilarini muayyan kasbni hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejidagi ta‘lim yo‘nalishlarini ongli va mustaqil tanlashga tayyorlash.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari:

Kasbiy ma‘rifat-o‘quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo‘lgan ta‘lim turlari hamda ta‘lim muassasalari, shuningdek, kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo‘yadigan talablari haqida ma‘lumotlar berish; kasbiy maslahat – o‘quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablariga, ta‘lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlariga muvofiq kasb va ta‘lim muassasasini tanlashga yordam berish; kasbiy tashxis o‘quvchilarning bilish (o‘quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash; kasbiy tarbiya bolalar va o‘smirlarda mehnat malaka va ko‘nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik hamda ma‘suliyatni shakllantirish va rivojlantirish. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘lim vazirligi, Respublika tashxis Markazi buyruqlari, meyoriy hujjatlari va metodik tavsiyalari asosida barcha darajadagi tashxis markazlari tomonidan tashkil etiladi va bevosita ta‘lim muassasalarining psixologlari tomonidan amalga oshiriladi.

III. Psixologik xizmatning tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish

6. Psixologik xizmat Respublika tashxis Markazining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

7. Psixologik xizmatga Respublika tashxis Markazi direktori tomonidan tayinlanadigan va vazifasidan ozod qilinadigan bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

8. Psixologik xizmatning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida jamoatchilik asosida tashkil etiladigan Kengash tomonidan muvofiqlashtiriladi. Kengash tarkibi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda ularning vakillaridan shakllantiriladi va xalq ta'limi vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

9. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi psixologik xizmat faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: muassasalarda psixologik xizmatning tashkil etilishi va ta'minlanishi yuzasidan muammolarini o'rganish, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish; muassasalarda bolalar ta'lim - tarbiyasi va rivojlanishining psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilish, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar bilan bog'liq holda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha tadbirlar belgilash; psixologik xizmatni takomillashtirish muammolari, xususan bolalar huquqlari, salomatligi muhofazasi, ijtimoiy himoyasi va moslashuvi, o'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari va seminarlarini tashkil etish;

Respublika tashxis Markazi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida kadrlar (mutaxassis-psixologlar)ni tanlash va ularni joy-joyiga qo'yish, malakasining oshirilishi va attestatsiyadan o'tkazilishini nazorat qilish; psixologlarni tadqiqotchilik loyihalari (grantlar)ni ishlab chiqish va ularni bajarishga jalb qilish, tadqiqotlar natijalarini xalq ta'limi tizimi muassasalarida joriy etishlariga yordam berish; muassasalarda psixologik xizmatning tashkil etilishi holati bo'yicha Respublika tashxis markazi hisobotlarini ko'rib chiqish; Kengash yig'ilishlarini o'tkazish (yilning har choragida, yarim yillikda, yilda) hamda uning a'zolari o'rtasida hamkorlikni ta'minlash; psixologik-pedagogik yo'nalishda ta'lim muassasalari faoliyatini

takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va Xalq ta'limi vazirligi rahbariyatiga kiritish.

10. Respublika tashxis Markazi tomonidan psixologik xizmat yo'nalishida quyidagilar amalga oshiriladi: muassasalardagi psixologik xizmatga umumiy rahbarlik qiladi va ushbu xizmat faoliyatini muvofiqlashtiradi; muassasalardagi psixologik xizmat faoliyatini belgilovchi va tartibga soluvchi meyoriy hujjatlarni ishlab chiqadi va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun Xalq ta'limi vazirligiga kiritadi; o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, shaxsning har tomonlama shakllanishi va uyg'un rivojlanishi, o'quvchilar va maktab bitiruvchilarini uzluksiz kasb - hunarga yo'naltirish vazifalaridan kelib chiqqan holda psixologik xizmat amalga oshirilishining tashkiliy, axborot, ilmiy-metodik ta'minotini yo'lga qo'yadi; psixologlar amaliyotda qo'llashlari uchun o'quvchilarni psixologik-pedagogik tashxisdan o'tkazish metodikalarini (anketalar, testlar, so'rovnomalarni), kasb-hunarga yo'naltirish dasturlari va metodikalarini, shuningdek, psixoprofilaktik dasturlarni, psixologik treninglarni, tegishli metodik tavsiyalarni ishlab chiqadi, tajriba-sinovdan o'tkazadi va sharoitga moslashtiradi; psixologlarning oilalarda, o'quvchilar jamoasi va pedagogik jamoalarda qulay psixologik iqlim yaratish bo'yicha tarbiyalanuvchilar va o'quvchilarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bilan ishlarni tashkil etishlari uchun tavsiyalar ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etadi; psixologik xizmatni amalga oshirish va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rganadi, umumlashtiradi va ta'lim amaliyotiga joriy etadi; muassasalarda psixologik xizmat amalga oshirilishi monitoringini olib boradi; kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, psixologlarning malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazilishi tashkil etilishini, ularga belgilangan tartibda malaka toifalari berilishini nazorat qiladi.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari huzuridagi tashxis markazlari tomonidan psixologik xizmat yo'nalishida quyidagilar amalga oshiriladi: muassasalarda psixologik xizmatning amalga oshirilishiga metodik rahbarlik qiladi va faoliyat nazoratini olib boradi; Respublika tashxis Markazi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi Markazi, shuningdek, boshqa bolalar tashkilotlari va

ilmiy muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan psixologik xizmatga doir meyoriy hujjatlarni, metodik, dasturiy va o'quv materiallarini amaliyotga joriy etadi; bolalarning ta'lim-tarbiyasi va ularning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar, o'quvchilar xatti-harakatidagi og'ishlarni tuzatish, maktab o'quvchilarining kasbhunar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim yo'nalishlarini tanlashga tayyorlash bo'yicha psixologlar faoliyatini tashkil etadi; psixologlarga bolalar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillari, shuningdek, ta'lim muassasalari pedagoglari bilan ishlashda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi; psixologik xizmatni amalga oshirishning mahalliy va xorijiy tajribalarini o'rganadi, ularni ta'lim amaliyotiga joriy etadi; psixologik xizmatning amalga oshirilishi monitoringini olib boradi, olingan natijalarni tahlil qiladi va umumlashtiradi, tegishli (viloyat, tuman, shaharlar bo'yicha) ma'lumotlarning kompyuter bankini yaratadi; psixologlar malakasini oshirish va ularni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash yuzasidan takliflar tayyorlaydi, ularga malaka toifalari berilishining hisobini yuritadi.

12. Maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasalari, mehribonlik uylari rahbarlarining majburiyatlariga quyidagilar kiradi: psixologik xizmatning tashkil etilishiga umumiy rahbarlik, psixologning ish rejasini (yillik, choraklik, oylik) ko'rib chiqish va tasdiqlash; psixolog samarali faoliyat yuritishi uchun zarur tashkiliy va moddiy-texnik sharoitlarni yaratish; zarur psixologik adabiyotlar va ilmiy-metodik materiallarni, o'quv, didaktik va ko'rgazmali materiallar, o'quv videofilmlari, muayyan psixologik metodikalarni (testlarni) xarid qilishga ko'maklashish; psixolog bilan birgalikda ota-onalar yoki qonuniy vakillar va pedagoglar uchun o'tkaziladigan psixologik ma'rifiy tadbirlarni (suhbatlar, ma'ruzalar, seminarlar, treninglarni) tashkil etish; olingan ma'lumotlar asosida diagnostik, korreksion, profilaktik tadbirlar va psixologik maslahatlarni o'tkazishda psixologga yordam berish; psixolog faoliyati natijalarini rahbar huzuridagi yig'ilishlarda, pedagogika kengashlarida, jamoa yig'inlarida ko'rib chiqish va muhokama etish; psixolog faoliyatining barcha yo'nalishlari va natijalarini nazorat qilish, psixologning tegishli ish rejasi bajarilishi yuzasidan oylik, choraklik, yillik hisobotlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash.

13. Psixologning vazifalari: bolalarning shaxsiy va ijtimoiy, intellektual rivojlanishi, psixologik salomatligini saqlash uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish va ta'minlashga yo'naltirilgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish; o'quvchilarning (tarbiyalanuvchilarning) rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi sabablarni aniqlash va ularga psixologik yordam (psixokorreksiya, psixoprofilaktika, reabilitatsiya va tavsiyalar) ko'rsatish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish; turli yoshdagi bolalarning xarakter xususiyatlari va shaxs sifatlarini inobatga olgan holda ularning qobiliyat, layoqat, bilish va kasbiy qiziqishlarini o'rganish, korreksiya qilish va rivojlantirish; 6-7 yoshdagi bolalarni psixologik tekshiruvdan o'tkazish va ularning boshlang'ich sinfda ta'lim tayyorgarlik darajasini aniqlashda qatnashish; o'quvchilarni tashxis qilish va natijalarni ta'lim olish davomida (1-sinfdan 9-sinfgacha) "Psixologik-pedagogik tashxis daftari" da qayd etib borish; o'quvchilarning (tarbiyalanuvchilarning) individual, jinsiy va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, ularda ijobiy ijtimoiy ustanovkalarni, ta'lim olish, hayotiy va kasbiy o'zligini anglashga tayyorgarlik motivatsiyalarini shakllantirish; iqtidorli bolalar va o'smirlarning ijodiy rivojlanishi uchun psixologik qo'llabquvvatlanishini tashkil etish va amalga oshirish; ijtimoiy va huquqiy xavf omillarining ta'sirini aniqlash, ularning bolalar va o'smirlarga ta'sirini kamaytirish uchun psixologik tashxis tadbirlaridan foydalanish, ijtimoiy muhitda ularning xulq-atvori va muloqotini psixologik-pedagogik korreksiyalash; bolalarning ma'naviy-ma'rifiy, intellektual va jismoniy tarbiyasiga ko'maklashish, o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar), pedagog xodimlar, otaonalar yoki qonuniy vakillarning psixologik madaniyatini shakllantirish; bolalar tarbiyasi, ta'limi va rivojlanishi, shuningdek, ota-onalar va bolalar munosabatlaridagi muammolar bo'yicha ota-onalar yoki qonuniy vakillarga psixologik maslahatlar berish; bolalar bilan ishlashda samarali natijalarga erishish va o'zining kasbiy mahoratini oshirish maqsadida mutaxassis psixologlarning ilg'or tajribalarini va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish; psixologik xizmat, shuningdek, pedagogika jamoasining bolalar tarbiyasi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tadbirlari bo'yicha ma'muriyatning buyruq va farmoyishlarini bajarish; o'z faoliyatiga doir hujjatlar va hisobotlarni o'rnatilgan shakllarda yuritish, ta'lim muassasasida tarbiyaviy tadbirlarning ishlab chiqilishi, rejalashtirilishi va

o‘tkazilishida, shuningdek, maktab, oila, mahalla hamkorligi amalga oshirilishida ishtirok etish; umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar soni ko‘pligini inobatga olgan holda, psixologik xizmatni amalga oshirishda sinf rahbarlari ham ishtirok etishlari mumkin. Buning uchun maktab psixologi sinf rahbarlari bilan avvaldan tayyorgarlik ishlarini o‘tkazishi kerak.

14. Psixologlarning asosiy funksiyalari: har bir yosh bosqichida (bolalik, o‘smirlik, yoshlik) shaxsning barkamol shakllanishi va rivojlanishiga ko‘maklashuvchi psixologik-pedagogik shartsharoitlarni yaratish; o‘quvchilarning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi buzilishlar, shuningdek, ularning xulqatvori hamda muomalasidagi og‘ishlarni aniqlash; o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar), ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillari, pedagoglar o‘rtasida psixologik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida psixologik ma’rifat ishlarini olib borish; o‘quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va shaxsiy sifatleri, shuningdek, kasb hamda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida keyingi ta’lim yo‘nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kollejini) tanlash motivlarini aniqlash bo‘yicha tashxis tadbirlari (suhbatlar, anketa so‘rovlari, testlar) ni tashkil etish va o‘tkazish; iqtidorli bolalar va o‘smirlarni aniqlash, ularning bilimga qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quv hamda ijodiy faoliyatga undash uchun zaruriy psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishda ishtirok etish; o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar) ning darslarni o‘zlashtirmasligi, atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarda bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy muammolarini aniqlash, ularni ota-onalar yoki qonuniy vakillar, ta’lim muassasalari pedagoglari, mehribonlik uylari tarbiyachilari bilan birgalikda hal etish; tarbiyasi og‘ir, pedagogik qarovsiz bolalar va o‘smirlarni psixologik tekshirish, ularning xulqidagi og‘ishlarni va ijtimoiy muhitga moslasha olmaslik holatini korreksiyalash, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillar uchun ularni qayta tarbiyalash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish; tarbiyasi og‘ir o‘smirlar (huquqbuzarlar) ga psixologik tavsifnomalar tayyorlash, ularni voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga taqdim etish, komissiya qarorlarini ishlab chiqishga ko‘maklashish; psixologik yordamga muhtoj o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar) ning turli toifalari bilan korreksion-rivojlantiruvchi, profilaktik va maslahat tadbirlarni

o'tkazish; "Ishonch qutisi" ishini tashkil etish, o'quvchilar jamoasi va pedagogik jamoada sog'lom psixologik iqlimni yaratish hamda saqlab qolish; o'z faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha hujjatlarni (rejalar, dasturlar, hisobotlar, ma'lumotnomalar, xulosalar va hokazo) yuritib borish.

15. Psixologlar o'z vazifalarini maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasalari, mehribonlik uylari pedagogik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bajaradilar, tarbiyalanuvchilar, o'quvchilar, ularning oilalari haqidagi ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlaydilar, beradigan tavsiyalarining asoslanganligi va o'z faoliyati natijalari uchun shaxsan javobgardirlar.

IV. Psixologlarning huquqlari va javobgarligi

16. Psixolog quyidagi huquqlarga ega: bolalar, ularning otaonalari yoki qonuniy vakillari, shuningdek, maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi pedagoglari bilan olib boriladigan ishlarning muayyan yo'nalishlarini mustaqil shakllantirish; psixologik xizmatni amalga oshirish doirasida tadbirlarning ketma-ketligini, maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi pedagogik jarayonining o'ziga xos tomonlari, muayyan shart - sharoitlari va kontingentini hisobga olgan holda o'z faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash; muassasa rahbariyatiga o'zi uchun xona, mebel jihozlari, kompyuter va boshqa texnika vositalari, idora buyumlari ajratilishi to'g'risidagi talablar bilan murojaat qilish; maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi hujjatlari bilan tanishish; psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodikalar, psixoprofilaktika va korreksionrivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishda qatnashish, ularni sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy etishda ishtirok etish; ma'muriyat bilan kelishgan holda sinfdagi va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, shuningdek, boshqa tadbirlarda o'quvchilarning xulqatvori hamda individual xususiyatlarini, ularning o'qishga, sinf rahbari va o'qituvchilar bilan muomala munosabatini o'rganish maqsadida ishtirok etish; psixologik tadqiqot va tajribalar o'tkazish, ularning natijalarini ilmiy jurnallarda hamda boshqa matbuot nashrlarida e'lon qilish; muassasa ma'muriyati ko'rsatmalari psixologning mazkur Nizomda belgilangan majburiyatlari, funksiyalari va faoliyat yo'nalishlariga zid bo'lsa, ularni bajarmaslik; bolalar taqdirini hal etuvchi turli idoralar va komissiyalar ishida

maslahat ovozi huquqi bilan qatnashish, qabul qilingan qarorlar qoniqtirmagan holatlarda yuqori turuvchi idoralarga murojaat qilish; joylardagi davlat hokimiyati idoralariga, tibbiyot va huquqni muhofaza qilish muassasalariga, boshqa davlat va jamoat tashkilotlariga bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha iltimos-nomalar bilan murojaat qilish; barcha darajadagi tashxis markazlariga maktab o'quvchilarining kasbiy o'zligini belgilashi hamda kasb-hunarga yo'naltirish masalalari bo'yicha murojaat etish; O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida xalq ta'limi tizimi muassasalari xodimlari uchun nazarda tutilgan rag'batlantirish va imtiyozlardan foydalanish.

17. Psixolog quyidagilar uchun javobgardir: ish faoliyatini rejalashtirish va ularni bajarish, olinadigan natijalar hamda ular bo'yicha belgilangan tartibdagi hisobotlarni tayyorlashga; psixologik ma'rifat, tashxis, psixoprofilaktika, korreksion rivojlantiruvchi, maslahat tadbirlarining sifati hamda o'tkazish muddatlariga rioya qilishga; psixologik tashxisning to'g'riligi, tashxis natijalari bo'yicha beriladigan tavsiyalarning asoslanganligiga; o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar), ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillarining, maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi pedagoglari va rahbarlarining manfaatlaridan kelib chiqib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarning sir saqlanishiga; o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) ning va ta'lim jarayoni boshqa subyektlarining shaxsiy muammolariga hamda tashxisi natijalariga oid psixologik va boshqa ma'lumotlarning oshkor etilishiga.

V. Psixologlar mehnatini rag'batlantirish 18. Psixologlar mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

19. Ko'p yillik mehnatlari natijalari bo'yicha yuqori natijalarga erishgan psixologlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

20. Psixologlar shartnoma asosida xaq to'lanadigan ta'lim va psixologik xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek, halq ta'limi muassasalarining manfaatdor yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan tuzadigan tadqiqotchilik loyihalari (grantlar) ni bajarishda qatnashadilar.

21. Psixologlarga malaka toifalari attestatsiya natijalariga ko‘ra belgilanadi hamda ularning mehnatiga haq to‘lash differensial tarzda malaka toifasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlari?
2. Psixolog qaysi huquqlarga ega?
3. Psixologning vazifalari nimalardan iborat?

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.
2. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
3. The Cambridge Handbook of Personality Psychology// Edited by Philip J. Corr. Cambridge University Press 2009.

3 – Mavzu. Amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari. Pedagog-psixolog faoliyatining individual uslubi. Pedagogning psixologik kompetentligi.

PEЖA:

1. Psixologik tashviqot, psixologik profilaktika.
2. Psixologik -pedagogik konsilium.

Tayanch tushunchalar – o‘zini himoya, ўzo‘zini anglash, psixologik qonuniyatlar, o‘quv faoliyati, amaliy faoliyat.

Ma'lumki, ijtimoiy psixologiya fanida aynan psixologik xizmat muammosiga bag'ishlangan va uning barcha yo'nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo'lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida psixologik xizmat muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqodlarni alohida qayd etish mumkin.

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi psixologik xizmat metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi. Chunonchi, barcha tadqiqotchilar ham ijtimoiy, psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo'lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab beradilar.

Bular ichida psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andreyeva G.M., Davletshin M.G., Zabrodin Y.M., Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D., Snigireva T.V., Filippov A.V., Shixirev P.N., Shoumarov G'.B., Yadov V.A., G'oziyev E.G'.; shaxs faolligi bilan bog'liq tadqiqotlarni Abulxanova- Slavskaya K.A., Anufriyev E.A., Grimak

L.P., Lomov B.F., Leytes N.S., Golubeva E.A., Qodirov B.R., Lipkina A.I., Petrovskiy V.A., Rubinshteyn S.L., Qodirov B.R. ; ijtimoiy ustanovka bilan bog'liq tadqiqotlarni Asmolov A.G., Nadirashvili SH.A., Uznadze D.N., Shixirev P.N., Allpoqt G.V., ijtimoiy ehtiyojlar va faoliyatdan qoniqish bilan bog'liq tadqiqotlarni Bojovich L.I., Bratko A.A., Vilyonas V.K., Dodonov B.I., Kitvel T.A. Maslov A.H; shaxsga individual yondashuvning

ta'minlanishi bilan bog'liq tadqiqotlarni Klimov E.A., Merlin B.S., Nebilisin V.D., Peysaxov

N.M., Rusalov V.M., Siavina L.S., Strelyau A., Teplov B.M.; shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollariga bag'ishlangan tadqiqotlarni Zdravomislov A.G., Kuzmin E.S., Lazurskiy A.F., Muksinov R.I., Myasisev V.N., Stolin V.V., Serbakov A.I., Bogoslavskiy V.V.; shaxsga hissiy-irodaviy sifatlar asosida yondashuv istiqbollarini tadqiq qiluvchi tadqiqotlarni Bassin F.V., Vasilyuk

F.YE., Gissen L.D., Zilberman P.B., Konopkin O.A., Majidov N., Nayenko N.I., Prixojan A.M., Rozelnblat V.V., Xekhauzen X., Eberleyn G., Nevv D.O.

Ilmiy-nazariy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha amaliyotchi psixologning quyidagi vazifalarni bajarishi talab qilinadi:

- psixologik xizmatning metodologik asoslari haqida bilim, tushuncha va tassavurga ega bo'lish;
- o'quvchi shaxsiga psixologik yondashuv uchun samarali foyda bera oluvchi psixologik usullar, tamoyillar va metodikalarni ajrata olish;
- umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, tibbiy psixologiya fanlari bo'yicha tegishli bilimlarni o'zlashtirish;
- O'zbekistondagi psixologik xizmat konsepsiyasi haqida axborotga ega bo'lish;
- o'z-o'zini ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirish bilan bog'liq kunlik, haftalik, oylik va yillik ish rejalarini tuzish va bajarish.

II. Ilmiy-tashkiliy faoliyat yo'nalishlari quyidagi vazifalarni bajarishni o'z ichiga oladi:

- har kunlik, haftalik, oylik va yillik taqvimiy ish rejasi tuzish, uni hududiy psixologik xizmat markazi tomonidan tasdiqlatish;
- psixologik xizmat xonasini kerakli jihozlar, ko'rgazmalar va boshqa barcha materiallar bilan to'ldirish;
- Maktabdagi har bir o'quvchi uchun "Shaxs psixologik kartasi"ni tuzish va shu ma'lumotlar (ko'rsatkichlar) asosida tegishli psixologik tadbirlarni belgilash;
- ota-onalar, sinf rahbarlari, fan o'qituvchilri va maktab rahbarlari bilan bajariladigan ishlar rejasini tuzish;

- har bir sinfdagi o‘quvchilar guruhi, alohida referent, rasmiy va norasmiy guruhlar, liderlar va ayrim “ajralib qolgan” o‘quvchilar bilan individual ish olib borish rejasini tuzish;

- o‘quvchilarni maktabga qabul qilish va kasbga yo‘llash bilan bog‘liq psixologik ishlar ko‘lamini belgilash;

III. Ilmiy-tadqiqiy yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi vazifalarning bajarilishi nazorat qilinadi:

- maktab amaliyoti uchun zarur psixologik usullarni qo‘llash va olingan ma’lumotlarni qayta ishlash asosida tegishli ilmiy xulosalar chiqara olish;

- psixologik qonuniyatlarni bilish va shu asosda namoyon bo‘luvchi yosh xususiyatlari, individual xususiyatlar va o‘quv motivlariga xos jihatlarni muntazam o‘rganib borish, tadqiq qilish, fikr-mulohazalar yuritish;

- o‘quvchi faolligiga, o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish orqali o‘z-o‘zini himoya qilishga nisbatan ijobiy yoki salbiy ta’sir etuvchi omillarni obdon o‘rganish, tadqiq qilish va tadbirlarni belgilash;

- o‘quv faoliyati samaradorligini aniqlashga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va tadqiq qilish;

- psixologik yondashuv samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi mavzular, kuzatishlar asosida izlanishlar olib borish, u yoki bu o‘quvchida yuz berayotgan o‘zgarishlar sababini o‘rganib borish;

- o‘z kuzatishlari va amaliy faoliyat natijalari bo‘yicha ilmiy-amaliy anjumanlar uchun ma’ruzalar tayyorlash.

Nazorat savollari

4. Kasb-hunarga yo‘naltirish bu?
5. Kasbiy maslahat bu?
6. Psixologik maslahat bu?

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mers D.G. Social psychology. 11 edition. – McGraw-Hill Education, 2012.
2. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik – M.: “Aspekt Press”, 2003. – 364 s.
3. G‘oziyev E.G. Sotsial psixologiya. Toshkent, 2013.

4.Kuzmin YE.S. Osnovi sotsialnoy psixologiyalGU 2001 5.Parigin
V.D. Osnovi sotsialnoy psixologicheskoy teorii M.

2001

**4-Mavzu: Pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli.
Pedagogik jamoa psixologiyasi. Zamonaviy psixologiya fanlari
o‘qituvchisiga qo‘yiladigan asosiy talablar.**

REJA:

1. Pedagogik jamoa psixologiyasi. Ta’lim va tarbiyani takomillashtirish faoliyatida ishtirok qilish
2. O‘qituvchi va talabaning hamkorligi — ta’lim samaradorligining muhim omili
3. Zamonaviy psixologiya fanlari o‘qituvchisiga qo‘yiladigan asosiy talablar

Tayanch iboralar: shaxslilik hapakatlari, intrasituativ integratsiyasi, ma’noviy harakat, psixolog-maslahatchi.

Ta’lim va tarbiyani takomillashtirish faoliyatida ishtirok qilish

- An’anaviy ta’lim va tarbiya metodlarining yutuq va kamchiliklarini tadqiq qilishda qatnashish.
- O‘quv jarayonida faol va innovatsion metodlarini sinab ko‘rishda ishtirok qilish, olingan materiallarni qaytadan ishlab chiqish.
- O‘quv predmetlariga nisbatan talabalar munosabatini aniqlash va talabalar qiziqish, intilishlarini hisobga olgan holda ta’lim tizimini joriy qilish to‘g‘risida, shuningdek, o‘qitishda tinglovchilarga individual va differensial munosabatni amalga oshirishni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va hokazo.

O‘qituvchi va talabaning hamkorligi — ta’lim samaradorligining muhim omili

Oliy maktabda hamkorlikdagi faoliyatning shakllanishi, uning ijtimoiy-psixologik jihatini tashkil qilish, har qanday faoliyatni, shu jumladan, o‘quv

faoliyatini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarini o'rganish so'nggi o'n yillarda amalga oshirila boshlandi.

B.F.Lomov shaxs faoliyatini tahlil etishning umumiy psixologiyada qabul qilingan tuzilmasini ko'rib chiqib, bu faoliyatni bajaruvchi shaxsni boshqa shaxslar bilan hamkorligini ta'minlash zarurligini ta'kidlab o'tadi. Yakka shaxs faoliyatining psixologik tahlili faoliyat subyekti boshqa odamlar bilan aloqasini mavhumlashtiradi. «Lekin bu mavhumlashtirish» nihoyatda muhimligidan qat'iy nazar, o'rganilayotgan hodisalarni bir tomonlama yoritish imkonini beradi.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda, asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

A.V.Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi.

Bu muammoga boshqacha yondashgan A.A.Bodalev o'qituvchi bilan o'quvchining munosabati, ularning samarali hamkorligini vujudga keltirish uchun qulaylik yaratishni zarur deb hisoblaydi. Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning shaxs sifatidagi xususiyatlarini, maqsad va ehtiyojlarini hisobga olishlari shartdir.

Yuqoridagi fikrlarga qaramay o'zlashtirishning turli bosqichlarida o'qituvchi bilan o'quvchilarning turlicha hamkorligi qanday uyushtirilishi masalasi hal bo'lgan emas. Binobarin, o'qituvchida o'quv faoliyatini hamkorlik asosida tashkil qilish ko'nikmalari yo'qligi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyatni psixologik jihatdan o'rganishni V.Y.Lyaudis rahbarligidagi psixologlar guruhi amalga oshirdi. Uning asosiy maqsadi yangi psixik fazilatlarining shakllanishida o'qituvchi bilan talaba hamkorligining rolini ifodalash edi.

Ushbu nazariyaga binoan o'quv faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir. Mazkur nazariya asosida o'quv vaziyatini talaba shaxsining rivojlanishidagi «yaqin kamolot zonasi»nigina emas, balki

«Perseptiv rivojlanish zonasi»ni ham yaratadigan yo'sinda loyihalash mumkin.

V.Y.Lyaudis o'quv vaziyati tartibidagi 4 ta o'zgaruvchi holatni ko'rsatadi: a) tashkiliy o'quv jarayonining mazmuni (uning xususiyati, o'quvchi o'zlashtiradigan faoliyat dasturi, egallanadigan bilish faoliyatinnng turlari); b) ta'lim mazmuni va o'quv faoliyati usullarini o'zlashtirish: bir bosqichdan boshqasiga o'tish tartibi; v) talaba bilan o'qituvchining o'zaro ta'siri va hamkorlik tizimi; g) ta'limdagi o'zgaruvchan omillarning o'zaro aloqasining takomillashuvi.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va talabalarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan talaba hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va talaba munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish obyektini, bilish faoliyatining barcha qismlarini qayta ko'rishni ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli talabalar mustaqil holda ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikda shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan talabaning birgalikdagi xatti-harakatlarining sistemasini tushunish kerak. Bunday xatti-harakatlar o'qituvchining talabaga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi; talabalarning faolligi astasekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi: o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Psixologiya fanida hamkorlikning sakkizta shakli mavjud, ular quyidagilardan iboratdir: 1) faoliyatga kirish; 2) mustaqil harakatlar (o'qituvchi bilan talaba hamkorlikda bajaradilar); 3) o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga talabani jalb etadi; 4) taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan talaba ana shu namuna asosida harakat qiladi); 5) madad harakatlari (o'qituvchi talabaga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi); 6) o'zini o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda

va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi); 7) o'zini o'zi o'zgartiruvchi harakatlar; 8) o'zini uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi xatti-harakatlar shaklida namoyon bo'lib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri qo'yiladigan ushbu almashuvni o'z ichiga oladi: o'qituvchi harakat boshlaydi, talaba uni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Oliy maktablarda hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o'rganish va tajribalarda sinab ko'rishning asosiy maqsadi talabalarning bilimlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarining sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda ta'lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyat bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir. Ushbu mulohazalar E.G'oziyev asarlarida o'z ifodasini topgan. V.Y.Lyaudis va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi mahsuldor faoliyati o'rganilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tadqiqotlarda hamkorlik faoliyati uchta o'zaro bog'liq fazadan iborat ekanligi ko'rsatilgan, jumladan, birinchi faza — «faoliyatni egallash» deb nomlangan bo'lib, u o'z ichiga ushbu hamkorlik shakllarini qamrab olgandir: 1) o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi birgalikda amalga oshadigan harakatlarni turkumlarga ajratuvchi tizim; 2) talabalarning o'qituvchi faoliyatiga taqlid qilishga asoslangan harakatlari yig'indisi; 3) talabalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan harakatlar majmuasi; hamkorlik faoliyatining ikkinchi fazasi — talabalarning o'qituvchi faoliyatiga muvofiqlashtirilgan hamkorlik harakatlari majmuasi; 4) talabaning o'z-o'zini boshqaruvchi harakatlari tizimi; 5) talabalarning o'z-o'zini qo'zg'atuvchi xatti-harakatlari (harakatga undovchi omillar) va boshqalar. Hamkorlik faoliyatining uchinchi fazasi — hamkorlik faoliyatidan yangi bir taraqqiyot bosqichiga ko'tarilish, takomillashishda, shuningdek, o'qituvchi bilan talaba hamkorligi sheriklik darajasiga o'sib o'tishida o'z ifodasini topadi. E.G'oziyev tomonidan berilgan talqinlarda juda kam tadqiq etilgan faza — bu uchinchi faza hisoblanadi. Lekin ayrim tadqiqotlarda sheriklikni amalga oshirish to'g'risida mulohaza yuritilgan bo'lsa-da, biroq uning tub mohiyati o'ziga xos xususiyatlari, bosqichlari, manbalari, psixologik mexanizmlari to'g'risida tugal fikrlar bildirilmagan. Ana shundan kelib chiqqan holda, quyida gipotetik xususiyatga ega bo'lgan muammoli holatlarni o'rtaga tashlash maqsadga muvofiqdir. Chunonchi,

yana bir bor E.G'oziyevning ta'kidlashicha, uchta fazaning oxirgisi taxminan mana bunday harakatlar tariqasida ko'rinishga ega bo'lishi mumkin: 1) teng huquqlilik asosiga qurilgan umumiy hamkor-likdagi o'qituvchi bilan talabaning faoliyatga madad beruvchi (o'zaro ta'sir o'tkazish negizida ijodiy izlanishlar namoyon etilsa) harakatlar; 2) ma'naviy harakatlar (o'qituvchi va talabaning hamkorlik zaminiga qurilgan harakatlari muayyan ma'no, mohiyat, intellektual harakat, anglashilgan turtki, maqsadga yo'naltirilgan vosita, o'zaro mohiyatni oydinlashtiruvchi munosabat kabilar); 3) interaktiv harakatlar (o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasi); 4) predmetli refleksiv harakatlar (bu yerda mana bunday holat yotishi ehtimoldan xoli emas; birinchidan, har qanday hamkorlik muayyan narsaga qaratilgan sodda va lo'nda intellektual harakatlardan tuzilishi; ikkinchidan, aniq muammolar yoki o'quv predmetlari mohiyati bog'liq harakatlar zanjiriga yo'nalgan bo'lishi mumkin, lekin har bir intellektual harakat anglashilgan, o'zo'zini boshqarishga bo'ysundirilganligi bilan ajralib turishi lozim); 5) interaktiv harakatlar (o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin); 6) ma'naviy refleksiv harakatlar ("refleksiv" tushunchasi anglaganlik darajasini bildirgan ma'noda qo'llaniladi, shuning uchun bu o'rinda mantiqiy izchillikdagi harakatlar, aqlni peshlash mashqlari tarzida ishtirok etib, muayyan aqliy yuklamani o'zida aks ettirishi lozim, bu yerda harakatlar ortiqcha operativ belgilardan xalos bo'lishi shart). Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, yuqoridagi fikrlarni empirik materiallar asosida chuqurroq o'rganish orqali oliy ta'limda psixologik xizmatning muayyan istiqbollarini belgilash mumkin.

Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish va uni qayta qurish jarayoni bir qator qonuniyat tarzidagi va o'ziga xos psixologik xususiyatlar tariqasidagi holatlar, mexanizmlar, aloqalar shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, o'qituvchining hamkorlik faoliyatini yuksak darajada boshqarish paytida talabalarda fan asoslarini egallash, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish birmuncha yengil ko'chadi. Shuningdek, o'quv faoliyatining operatsional predmetli jabhasini uyushtirish, idora qilish, uni qayta qurish

quyidagi tartibda namoyon bo'lishi mumkin: a) shaxslilik hapakatlari; b) faoliyatga yo'naltirilgan qidiruv harakatlari; v) bilishga oid oriyentir harakatlar, harakatning nazorat korreksion tizimi kabilar muayyan davrgacha talabalarni hamkorlik faoliyatining ma'noviy, tashkiliy jarayoniga taalluqli hamkorlikning tarkibiy qismlarini boshqarish funksiyasini bajarib turadi. Bu borada harakatning ijtimoiy-tashkiliy, motivatsion-ma'noviy, predmetli tashkiliy qismlari faol ishtirok qiladi hamda hamkorlik faoliyatining mahsuldor bo'lishiga ta'sir o'tkazadi. Ikkinchidan, o'qituvchining talabalarga tavsiya qilingan, mo'ljallangan, goho sinab ko'rilgan hamkorlik o'quv faoliyati shakllaridan asta-sekin o'qituvchining bevosita rahbarligida o'z-o'zini boshqarishga, ya'ni refleksiv faoliyat darajasiga o'sib o'tish jarayoni yuzaga keladi.

Hamkorlikdagi faoliyat natijasida uning ishtirokchilari, subyektlari shaxsiy pozitsiyasini ilgari surishda, hamkorlik qatnashchisi tariqasida o'z o'rnini topish uchun intilishda dinamik holat ko'zga tashlanishi mumkin. Qatnashuvchilar hamkorlik faoliyatini shunchaki dialogik ishtirokchisi roolidan uning teng huquqli, real pozitsiyaga ega bo'lgan muomala, munosabat, faoliyat subyektiga aylanadi. Hamkorlik faoliyatida talaba bilan o'qituvchining o'zaro ta'sirini (interaktivlik) baholashning divergentlik negizidan konvertgentlik pozitsiyasiga o'tishi kuzatiladi. Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o'tish jarayonida o'zaro o'tkazish xarakatini baholashdan o'z-o'zini baholash darajasiga ko'tarilishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omillardan biri vazifasini o'taydi.

Tajribada olingan natijalarni psixologik sifat jihatdan tahlil qilish hamkorlik faoliyatini boshqarish (o'qituvchi, o'qituvchi bilan talabalar, talabalarining o'zaro boshqaruvi) bosqichlari va ularning xususiyatlari, ishtirokchilarni idora qilish imkoniyatlari, ularni boshqarish ulushi turlicha ekanligini tasdiqladik. Mazkur o'zgarishlar quyidagi izchillikda namoyon bo'lishi mumkin: 1) predmetli monologik ijro etish darajasi; 2) ma'noviy yoki harakatlarni o'zaro almashish ko'rsatkichi; 3) interaktiv harakatlar almashish darajasi; 4) ma'noviy harakat ma'nosini dialogik tarzda almashish bosqichi; 5) intrasituativ integratsiyasi, yoinki boshqacha so'z bilan aytganda, faoliyat vaziyatning yaxlitligi e'tiborga olingan hamkorlik faoliyati harakatlari va boshqalar.

Ayni paytda, oliy ta'limdagi psixologik xizmat jarayonida Lyusher, Spilberger-Xanin shkalalari, Fidler metodikasi, V.Y.Lyaudis va boshqalarning diagnostik metodikalari yordamida olingan natijalar guruhlarini tuzish, ular o'rtasida hamkorlik joriy qilishda talabalarda bezovtalanish, o'z-o'zini boshqarish, guruhdagi psixologik muhit va shaxslararo munosabat xususiyatlari, xossalari, negizlari mexanizmlari, hamkorlik subyektlariga ta'sir o'tkazuvchi obyektiv va subyektiv omillarni ochib berishga xizmat qiladi.

Oliy maktab ta'limi samaradorligini oshirishda, hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda talabalarning aqliy imkoniyatlari, zaxiralari, umumiy saviyasi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, o'qishga munosabati, o'z-o'zini boshqarish darajasini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Talabalarda uchraydigan ijtimoiy-psixologik, bilishga oid kasbiy qiyinchiliklarning oldini olish uchun ta'kidlab o'tilgan mezonlarni aniqlash ko'zlagan maqsadni amalga oshirish sari yetaklaydi. Chunki o'qituvchi bilan talabalarning hamkorlik faoliyati ko'lami qancha keng bo'lsa, bilimlarni o'zlashtirish darajasi shunchalik yuqori, o'z-o'zini boshqarish esa puxta egallangan bo'ladi. O'zaro ta'sir o'tkazish doirasi qanchalik keng bo'lsa, muammolarni hal qilish jarayoni shunchalik tez amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi oliy ta'limda psixologik xizmat amaliyoti talaba va o'qituvchi, o'qituvchi va o'qituvchi, o'qituvchi va rahbariyat o'rtasidagi ijobiy psixologik iqlimni yaratishga, shuningdek, oliy ta'limda faoliyat yurituvchi har bir shaxsning faoliyat samaradorligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi o'ziga xos ijtimoiy psixologik omillarni tadqiq qilib muntazam ravishda tegishli psixologik tavsiyalarni taqdim etib borishga xizmat qiladi.

3.Psixologik maslahatga qo'yiladigan talablar Psixologik maslahatga va psixolog-maslahatchi amaliy ishiga qo'yiladigan umumiy, kasbiy va ma'naviy-axloqiy talablar tizimi nizomlarda juda yaxshi aks ettirilgan. Mana shu Nizomning ko'pchilik qoidalari psixolog maslahatchi ishiga bevosita qo'llanilgan. Ularning «psixolog» iborasi o'rniga «psixolog-maslahatchi» so'z birligini kiritib, ushbu qoidalarni eslatib o'tamiz.

1. Psixolog-maslahatchining kasbiy faoliyati u taklif etgan tavsiyalari uchun mijoz oldida mas'uliyati bilan ifodalanadi.

2. Psixolog-maslahatchining kasbiy faoliyati ma'naviy-axloqiy va yuridik asoslarga muvofiqlikka tayanishi kerak.

3. Psixolog-maslahatchining faoliyati mijozning intellektual va shaxsiy rivojlanishi yo'lida har qanday cheklanishlarni olib tashlashni ko'zda tutuvchi insonparvarlik maqsadlariga erishishga qaratilgan.

4. Psixolog-maslahatchi o'z ishini mijoz shaxsini so'zsiz hurmat qilish va daxlsizligi asosida tashkil etadi. Psixolog-maslahatchi inson huquqlari deklaratsiyasi bilan belgilangan inson huquqi asoslarini hurmat qiladi.

5. Mijozlar bilan ishlashda psixolog-maslahatchi halollik va ochiqlik tamoyillariga amal qiladi. Shu bilan birga u mijozga maslahat va tavsiyalarni berganda puxta o'ylashi va ehtiyot bo'lishi kerak.

6. Psixolog-maslahatchi mijoz huquqlari buzilishini sezganda o'z kasbiy birlashmalari a'zolari, hamkasblariga xabar berish, mijozlar bilan insonparvarlik munosabatlari buzilayotgani holatlarini aytishi kerak.

7. Psixolog-maslahatchi mijozlarga kerakli ma'lumoti, malakasi, bilimlari va ixtisosi mavjud bo'lgan xizmatlarni ko'rsatishi mumkin.

8. O'z ishida psixolog-maslahatchi faqat zamonaviy umumfan standartlariga javob beradigan sinovdan o'tgan metodikalarni qo'llashi kerak.

9. O'zining bilimlari va malakalarini doimiy ravishda yuksak darajasini ta'minlab turish psixolog-maslahatchining majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

10. Ilmiy tajribalarga to'la javob bermaydigan, yetarlicha sinovdan o'tmagan psixologik metodlar va tavsiyalarni qo'llashga majbur bo'lganida psixolog-maslahatchi bu haqida o'z mijozlarini ogohlantirishi va o'z xulosalarida juda ehtiyot bo'lishi kerak.

11. Psixolog-maslahatchi o'z mijozni to'g'risida ma'lumotni oshkor qilishga yoki maslahatlar natijasi to'g'risida ma'lumotni uchinchi shaxsga aytishga haqqi yo'q.

12. Psixolog maslahatchi huquqi bo'lmagan, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan shaxslarning psixologik maslahatlar va psixologik ta'sir ko'rsatish metodlaridan foydalanishlariga to'sqinlik qilishi hamda shunday «mutaxassislarning» xizmatlaridan foydalanayotganlarni bu haqda ogohlantirishi kerak.

13. Psixolog-maslahatchi huquqi bo‘lmagan odamlarga mijozlar bilan psixologik ishlar metodlarini o‘rgatishi mumkin emas.

14. Psixolog-maslahatchi mijoz tomonidan noo‘rin ishonch va umid yuzaga keltirmaslik uchun, ehtiyot bo‘lishi kerak, unga bajarib bo‘lmaydigan va‘dalar, maslahatlar va tavsiyalar bermasligi kerak.

15. Psixolog-maslahatchi mijozlarga taalluqli axborotlarni sir saqlash uchun shaxsiy javobgarlikni bo‘yniga oladi.

Mana shu barcha qoidalarga yoki odob normalariga amal qilish psixolog-maslahatchi amaliy ishida majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari kasbiy tayyorlangan yaxshi psixolog-maslahatchinmg kasbiy to‘la tayyorlanmagan psixolog-maslahatchidan ajratib turadigan yana bir qator muhim farqlar bor. Bu farq psixolog-maslahatchining mijozga bo‘lgan munosabati, psixologik maslahatlar davomida uchrab turadigan qiyin vaziyatlardan u qanday chiqa olishiga bog‘liq. Quyida keltirilgan 1-jadvalda tajribali va tajribasiz psixologmaslahatchi xulqining 10 ta xususiyatlarini solishtirib ko‘rsatib o‘tilgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Zamonaviy psixologiya fanlari?
2. Psixologik maslahatga qo‘yiladigan talablar qaysilar?
3. Pedagogik jamoa psixologiyasi maqsadi vazifasi?

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Nemov R.S. «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003
2. “Psixologiya” Uch. T-2. “Prospekt”. Moskva - 2004.
3. Psixologiya i pedagogika. Pod redaksiyey A.A.Radugina. Izd. “Sentr” 2003
4. Gamilton. Y.S. “Chto takoye psixologiya”. “Piter”, 2002.
5. Ananyev B.G. “Chelovek kak predmet poznaniya”. “Piter”, 2001.
6. Drujinina V. “Psixologiya “. Uchebnik. “Piter”, 2003.
7. Burlachuk F. Psixodiagnostika. “Piter”, 2002.
8. Ayzenk M. Psixologiya dlya nachinayushix. “Piter”, 2000.

IV.AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG‘ULOT. MAVZU: **Psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalari. Psixokorreksiyaning asosiy yo‘nalishlari.**

(4 soat)

Reja:

4. Psixodiagnostik ishlar quyidagi vazifalar
5. Psixologning rivojlantiruvchi va korreksion ishlari
6. Psixologning maslahat berish faoliyati

1. Psixologning psixoprofilaktik ishlari

Psixologik xizmat jarayonida diagnostik-rivojlantiruvchi yo‘nalishlar o‘zaro uyg‘unlikda olib boriladi. Taniqli psixolog olim D.B.Elkonin ta‘biri bilan aytganda, bolalarni tanlash uchun, aniqlangan chetlashishlarni tuzatish maqsadida psixik taraqqiyotni nazorat qilishga yo‘naltirilgan maxsus tashxis zarur bo‘ladi. Amaliyotchi psixolog faqatgina tashxis qo‘yish bilan cheklanmasdan keyingi rivojlanish dasturini ishlab chiqadi, o‘zi bergan tavsiyalarning bajarilishini nazorat qiladi, korreksion va rivojlantiruvchi ishlar ko‘lamini belgilaydi.

Psixoprofilaktikada uch bosqich alohida ajratib ko‘rsatiladi:

Birinchi bosqich dastlabki profilaktika, deb ataladi. Bu bosqichda psixolog sog‘ bolalar bilan ishlaydi yoki maktabdagi barcha o‘quvchilarni qamrab oladi.

Ikkinchi bosqich profilaktika muammolari mavjud bolalarga qaratiladi. Uning maqsadi o‘qishdagi va xulq- atvordagi qiyinchiliklarni iloji boricha erta aniqlab, ularni yo‘qotishdan iboratdir. Ikkinchi bosqichda ota-onalar va o‘qituvchilarga tegishli psixologik maslahatlar beriladi.

Uchinchi bosqich. Psixolog o‘qishdagi va xulq-atvordagi yaqqol ko‘rinib turadigan muammolari bor bolalarga o‘z diqqatini qaratadi. Profilaktikaning dastlabki maqsadi jiddiy psixologik qiyinchiliklarni, muammolarni yo‘qotish va tuzatishdan iborat. Psixolog oldiga kelgan bola bilan alohida ishlaydi. Maktab psixologining asosiy kuchi uchinchi bosqichga, ya‘ni «tarbiyasi qiyin» bolalarga qaratiladi.

Psixoprofilaktik ishlarning usullaridan biri pedagogik- psixologik konsiliumni tashkil etishdir. Y.K.Babanskiyning ta'kidlashicha, o'quvchilarni o'rganishni yaxshi yo'lga qo'yish uchun, to'liq yozma tavsifnomalar yozishdan ko'ra sinf o'qituvchi-larining o'quvchilar haqidagi fikrlarini jamoa bo'lib muhokama qilish, sinfga va o'quvchilarga individual yondashuv choralarini ishlab chiqish yaxshi natijalar beradi. Bunday jamoa bo'lib muhokama qilishlarni shartli ravishda pedagogik-psixologik konsilium deb ataladi. Psixologik-pedagogik konsilium o'qishda orqada qolish sabablarini yoki xulq-atvordagi kamchilik natijalarini muhokama qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Pedagogik konsiliumda psixologning vazifasi o'quvchi intellektual taraqqiyotini baholashda o'qituvchilarga metodik yordam berishni talab qiladi. Pedagogik konsilium imkoniyatlarni baholashda subyektiv xoli bo'lish, ularni obyektiv baholash imkonini beradi.

Psixolog ushbu konsiliumda ishtirok etib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Pedagogik jamoa kuzatish, suhbat, psixodiagnostika natijalariga asoslanib, o'quvchi muammolarining kelib chiqishi haqida isbotlangan farazlarga aniqliklar kiritadi. 2. Har bir o'qituvchida o'quvchiga nisbatan o'z ustanovkasini adekvat tarzda o'zgartirish talab qilinadi. Bu juda qiyin vazifa bo'lib, uni ehtiyotkorlik bilan hal qilish zarur, konsilium o'tkazguncha bu jarayonni sekin-asta boshlash kerak. Ko'pincha, o'qituvchi o'quvchiga nisbatan fikrini o'zgartirgisi kelmaydi. O'qituvchi bunda psixolog nima haqida gapirayotganini tushunmaganligi uchun emas, balki ongli ravishda o'z hayotini murakkablashtirgisi kelmaganligi uchun shunday qiladi. 3. Barcha o'qituvchilarning o'quvchi muammolarini va uning shaxsiy xislatlarini jamoa bo'lib tushunish hamda talqin qilish uchun psixologik zamin xozirlanadi.

Shunday qilib, psixologik-pedagogik konsilium psixoprofilaktik ishning muhim bosqichi hisoblanadi. Yuqori darajada tayyorlangan konsilium o'quvchilarning, o'qituv-chilarning va butun jamoaning rivojlanishiga yordam beradi.

2. Psixodiagnostik ishlar quyidagi vazifalarni bajarishga qaratiladi

1. Diagnostika uchun ma'lumotlarni olish. Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlari ba'zi belgilarining ko'rinishlarini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib undan bola xulqatvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari, taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi. Masalan, darsda o'quvchi diqqatining barqaror emasligi, diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Lekin xulq-atvorning ko'rsatilgan belgilari bola xulq-atvori ehtiyojlari va motivlari iyerarxiyasining (bosqichma-bosqich) o'zgarishi natijasi bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham u yoki bu o'quvchi o'zlashtirishi va intizomning pasayishi tashqaridan sezilsa-da, psixodiagnostik tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'zgarishlar manbaalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo'lishi, psixologik holat belgilari ham o'rganiladi.

Psixodiagnostik tadqiqotlar bola psixik funksiyalari rivojlanish darajasining, aqliy taraqqiyot darajasi bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun ham o'tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlash payti kelganda juda muhimdir.

2. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Agar «ko'ndalang kesim» metodlari orqali psixodiagnostik tadqiqot bosqichida bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya'ni psixik funksiyalar rivojlanishga daxldor dolzarb hudud aniqlanadigan bo'lsa, «uzunasiga kesim» (longityud) psixodiagnostik tadqiqotlarda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi maktabda o'qishi haqida masala hal bo'layotganda tibbiy pedagogik hay'at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.

4. Bolada paydo bo'lgan yetarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda tadqiqotchilarni qiziqtirgan masala bo'yicha katta guruhlarda tadqiqotlar o'tkaziladi. U yerda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

IV.Psixologning rivojlantiruvchi va korreksion ishlari

Psixologik xizmatning ushbu yoʻnalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jaryonida faol ishtirok etishni taqozo qiladi. Psixolog bolalar, oʻquvchilar, talabalarning yosh xususiyatlarini hamda ulardagi jadal rivojlanishni hisobga oluvchi, ular psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yoʻnaltiradi, ijtimoiy oʻsish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik xususiyatlar muhitida kamolotga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, u oʻquvchilarning psixik taraqqiyotidagi, xulq- atvor muomalasidagi nuqsonlar hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqadi va uni amaliyotga tatbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashgʻulotlar oʻtkazadi, ijodiy qobiliyatlarni oʻstirish maqsadida treninglar olib boradi. Bunda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yoʻnalganligi, etnopsixologik va etnomadaniy xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

3.Psixologning maslahat berish faoliyati

Psixolog maslahati jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Oʻquvchi taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan, maʼmuriyat, oʻqituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari, xodimlariga tegishli psixologik bilimlar doirasida maslahatlar berish.

2. Taʼlim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, oʻzaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetmaganlar munosabati, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruh, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish.

3.Maʼmuriyatga bolalarning psixik oʻsishi xususiyatlariga oid maʼlumotlar berishi, oʻgʻil va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarni gʻamxoʻrlik va vasiylik toʻgʻrisidagi qabul qilgan qarorlariga munosabat bildirish.

4.Ota-onalarga bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, oʻzaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyatlari muammosi boʻyicha ilmiy-amaliy maslahatlar berish.

5. Ota-onalar bilan o'quvchini maktabga qabul qilish va kasb tanlash masalalari bo'yicha individual va guruhli suhbatlar uyushtirish va ularga tegishli maslahatlar berish.

Demak, maktab amaliyoti psixologlari o'quvchilar bilan bevosita aloqada ularda vujudga kelgan muammolarni hal qiladilar. Bu "to'g'ridan to'g'ri maslahat berish" deb ataladi. Ba'zan o'quvchilarga va ota-onalarga o'qituvchilarning u yoki bu muammolari bo'yicha maslahat beradi, bu bevosita maslahat berishdir, bunda qoidalarga amal qilishga to'g'ri keladi. Maslahat berish markazida har doim psixolog va maslahat berilayotgan shaxsning o'zaro ta'sir jarayoni, ular orasida ishonchli o'zaro munosabatni o'rnatish yotadi. Bunda psixolog – maslahat beruvchi, o'qituvchi, ota-ona – maslahat beriluvchi, o'quvchi mijoz roliga bo'ladi.

Psixolog aniq yo'naltirilgan maslahat jarayonida boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilmaxilligini hisobga olgan holda differensial diagnostikani amalga oshiradi. Nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlaydi. Assotsial xulq-atvor sabablarini va shakllarini belgilaydi. Giyohvandlik va taksikomanlik, alkogolizm, o'g'rilik, daydilikning ijtimoiy psixologik ildizlarini tekshiradi, omillarni tahlil qiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda umumta'lim maktablarida olib borilayotgan psixologik xizmat amaliyoti o'z mazmuni va ilmiy ahamiyati jihatdan tobora rivojlanib bormoqda. Bu har bir umumta'lim maktabida faoliyat yurituvchi amaliyotchi psixolog-lar zimmasiga yanada yuksakroq mas'uliyatlarni yuklaydi.

O'quv va tarbiyaviy maqsadi:

Ta'limiy: tinglovchilarga o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda diqqatni jalb etish usullari bilan tanishtirish, tushuncha berish.

Tarbiyaviy: tinglovchilarga auditoriyani boshqarishda diqqatni jalb etish usullarini qo'llashning o'qituvchi va tinglovchi faoliyatidagi ahamiyatini nazariy va amaliy yoritib berish orqali ularda qiziqish, o'quv faoliyatida qo'llashga hohish uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: tinglovchilarda o'quv mashg'ulotlarini samarali o'tkazishlari va ta'lim sifatini oshirishlarida, auditoriyani boshqarishlarida diqqatni jalb qilish usullarini qo'llanishi bo'yicha bilim, ko'nikma va

malaklarini boyitish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikalarini o'rgatish, o'qituvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish.

O'quv va moddiy ta'minot: *kompyuter va videoprojektor; tarqatma material, mashg'ulotga tegishli prezentatsiya slaydlari, markerlar, skoch, doska, kompyuter, proyektor.*

AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISH TARTIBI:

Mashg'ulot o'qituvchining tinglovchilarni auditoriyani boshqarishda diqqatni jalb etish usullari bilan ekrandagi taqdimot materiallari orqali tanishtirishdan boshlaydi va o'quv jarayoni qatnashchilarini kichik guruhlar yoki juftliklarga bo'ladi.

Har bir kichik guruhga ekranda berilgan prezentatsiya materiallari asosida tayyorlangan diqqatni jalb etish usullariga tegishli bo'lgan tarqatma materiallarni tarqatadi, ularni birgalikda to'ldirishlari tartiblarini tushuntiradi. O'quv savoliga tegishli tarqatma materiallar quyidagicha bo'lishi mumkin:

O'quv jarayonini boshqarish uslublari					
Avtoritar		Demokratik		Liberal	
<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>	<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>	<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>
Xulosa:					

O'qituvchi tomonidan tinglovchilar diqqatini jalb qilish usullari

Jestlar

<i>Ijobiy ta'sir</i>	<i>Salbiy ta'sir</i>

**O‘qituvchi tomonidan tinglovchilar diqqatini jalb qilish usullari
Nutq va ohangdorlik**

<i>Ijobiy ta’sir</i>	<i>Salbiy ta’sir</i>

**O‘qituvchi tomonidan tinglovchilar diqqatini jalb qilish usullari
Tashqi qiyofa**

<i>Ijobiy ta’sir</i>	<i>Salbiy ta’sir</i>

O‘qituvchi topshiriqni tinglovchilar tomonidan bajarishlari uchun tayyorlanishga vaqt ajratadi va ularni taqdimot qoidalari bilan tanishtiradi, tinglovchilarning tayyorlanishlari uchun sharoit yaratadi.

Guruhlar tayyorgarlikni boshlaydilar.

Keyingi bosqichda guruhlar tayyorlagan ijodiy ishlarini navbati bilan taqdimot qiladilar. O‘qituvchi guruhlar taqdimoti uchun vaqt belgilaydi. Har bir chiqish tugagach, boshqa guruh qatnashchilari namoyish etilgan taqdimotni to‘ldirishlari va mavzuga oid savollar berishlari mumkin.

O‘qituvchi har bir guruhning taqdimotini umumlashtiradi, fikr almashadi va baholaydi. Mashg‘ulotda qo‘lanilgan metodlarga izoh beradi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

O'qituvchi tinglovchilar bilan mashq qilishda o'zining (shaxsiy) qiziqarliroq variantlaridan ham foydalanishi yoki pedagogikpsixologik uyin elementlaridan foydalangan holda ham tashkil etishi mumkin.

Mashg'ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

2-AMALIY MASHG'ULOT. PSIXOLOGIK KORREKSIYANING TAMOYILLARI VA UNI TASHKIL ETISH. PSIXOKORREKSION METODLARI. (4 SOAT)

Reja:

1. Korreksion psixologiya predmeti va tuzatish ishlarini olib borish.
2. Korreksion psixologiyaning asosiy yo'nalishlari.
3. Korreksion psixologiyaning asosiy tamoyillari
4. Predmetning tadqiqot metodlari

Tayanch iboralar: Psixologik xizmat, korreksiya, psixologik holat, rolli o'yinlar, boshqaruv, metod.

Psixologiya fani nimadan baxs yuritadi - degan savol mavjuddir, biroq hozirgi zamonda Korreksion psixologiya fani nimani o'rgatadi, kanaka predmet degan savol to'g'ilmoqda. Ma'lumki psixologiya Fani shaxsni o'rganadigan yagona fan emas, chunki uning ayrim jihatlarini filasofiya, pedagogika, logika, sotsiologiya, xatto kibernetika tadqiq kilmoqda. Korreksion psixologiya fanida esa inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir ko'rsatishni takozo qiladi. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida aloxida axamiyat kasb etadigan narsa bu - bolalar, o'quvchilar, talabalarning xulqi va muomalasidagi buzilishlar, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi kabilarni o'rganadi. Psixolog bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotidagi xulqi va muomalasidagi nukson va kamchiliklarni asta sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotga uni tadbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazadi va ijodiy qobiliyatlarni ustirish maqsadida treninglar olib boradi. Korreksion ishlarda guruhning qadriyatlarga yo'nalganligi etnopsixologik va etnomadaniyati xususiyatlari, elat tarixi, millat odati, usuli, rasm-rusmlari va boshqa etnos uz aksini

topishi lozim. Bulardan tashqari o'quvchilar, talabalar va murabbiylar o'rtasida nizolarni yo'qotish, egallagan o'rnidan, mavqeidan konikmaslik hissini kamaytirish uchun treninglar, rolli o'yinlarni tashkil qilishdan iborat. Yuqoridagi muloxazalardan ko'rinib turibdiki, ta'lim uz mazmuni va maqsadi bilan turmush, vokalik, xalk xo'jaligi, fan va madaniyatning aktual extiyohlari bilan uzviy bog'liq bulsa u (uzuvchi) tanlagan kasbini o'zlashtiradi va insonning ijtimoiy xayotida uz o'rnini topishi katta axamiyatga egadir. Korreksiyada har bir shaxsning xar tomonlama va garmonik kamolga yetkazish fanning zarur talabi bo'lib, xar bir mashuglotlarda amalga oshirildi. His-xayajon bilan utilgan mashg'ulot va treninglar tinglovchilar qalbida iz qoldiradi, fikr yuritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, fantaziyani uyg'otadi, tafakkuri, qobiliyati, diqqati rivojlanadi.

Korreksion ishlar ma'lum tartibda ilmiy tanlov asosida maxsus mashg'ulotlar va treninglar bo'yicha o'tkaziladi. Bu bilan birga emotsional zo'riqishga uchragan shaxsning millati, yoshi, jinsi, individual tipologik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinadi va tuzatish ishlari kasb xususiyatiga mos mutanosib bo'lishi ta'sir o'tkazish samaradorligini oshiradi. Shuni xam ta'kidlab o'tish joizki, korreksiyada psixolog bolalar, o'quvchilar va talabalarning yosh xususiyatlarini xamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ularning psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur, ijtimoiy usish talabiga javob beruvchi umuminsoniy va etnopsixologik qonuniyatlar muxitida kamolotga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb hisoblaydi. Shu bilan birga Korreksion psixologiyada bolalarni maktabgacha tayyorgarligini aniqlash va boshlang'ich sinf o'quvchilari muammolari va xokazolarni o'rganadi.

Korreksion psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. Korreksion psixologiyaning asosiy yo'nalishlari pedagogik amaliyotning talab darajasidan kelib chiqqan xolda shakllanmoqda. Shu sababli xam uning yo'nalishlarini, bu yo'nalishlarning moxiyatini pedagogik amaliyotning soxalarida qo'llanilishini ko'rsatmasdan turib to'liq ochib berib bulmaydi. Biz quyida korreksion pedagogika qo'llanilishi juda katta amaliy axamiyatga ega bo'lgan soxalardan bir nechtasini shartli ravishda (xayotda esa ular

umumiy, bitta pedagogik jarayonning ajralmas qismlaridir) ajratib oldik. Ular quyidagilar:

1. Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi.
2. Boshqarish va amaliyot.
3. Didaktik metodikalar.
4. Ijtimoiy pedagogika.
5. Pedagogik psixologiya.
6. Pedagogik sotsiologiya.

Bu soxalarning asosiy vazifalari, pedagogik va psixologik adabiyotlarda, o'quv qo'llanmalarida juda keng yoritilganligini hisobga olib ularga batafsil to'xtalib o'tmaymiz. Yuqorida keltirilgan xar bir soxada psixolog, pedagog yoki shu soxalarga qiziquvchi mutaxassislar ma'lum diagnostik ishlarni amalga oshiradilar. Mana shu ishlar majmuasi **Korreksion pedagogikaning yo'nalishlarini tashkil qiladi**. Xar bir soxada uziga xos diagnostik ishlar olib boriladi va bu ishlarning mazmuni **Korreksion psixologiyaning yo'nalishlarini tashkil qiladi**. **Bu yo'nalishlarga quyidagilar kiradi (Mixaylichev**

YE.A.,1997)

1. Tarbiyalanganlik darajasini korreksiya va diagnostika qilish.
2. Tashkiliy-metodik korreksiya va diagnostika.
3. Psixologik korreksiya va diagnostika.
4. Ijtimoiy-korreksion psixologiya.
5. Ijtimoiy korreksion psixologiya va psixodiagnostika
6. Pedagogik korreksion psixologiya va diagnostika.

Yo'nalishlarning mazmuniga qisqacha tuxtalib utamiz:

Tarbiyalanganlik darajasini korreksiya va diagnostika qilish - bu yo'nalish o'quvchilarning tarbiyalanganligini, ularning xulq-atvorini, odo axloqini, tarbiyalanuvchanligini (tarbiyaviy ta'sirlarga berilishi) o'rganishdan iboratdir.

Tashkiliy-metodik korreksiya va diagnostika- pedagoglarning kvalifikatsiyasini, o'quv jarayonining uslubiy ta'minlanganlik darajasini baholashdir.

Psixologik korreksiya va diagnostika - pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun xizmat qilishdir (o'quv jarayonining tashkiliy metodik tomonlaridan tashqari). O'quvchilarning ogzaki va yozma javoblarini, javoblardagi tipik xatolarni, ularning sabablarini, o'quv

faoliyatidagi salbiy o'zgarishlarni, o'quvchilarda o'quv, mehnat malaka va kunikmalarining rivojlanganlik darajasini, ta'lim olishga nisbatan moyilliklari korreksiya va diagnostika kilinadi.

Ijtimoiy-Korreksion psixologiya- o'quvchilarning pedagogik karovsizligi, moslashganlik darajasi, tarbiyasi ogir bolalarni korreksiya va diagnostika qilishda ijtimoiy omillarni hisobga oluvchi yo'nalishdir. Korreksiya va diagnostika pedagoglar tomonidan maktabdan, o'quv yurtidan tashqarida olib boriladi. Shu sababli Korreksiya va diagnostika jarayonida oila sotsiologiyasi va iqtisodi, huquq sotsiologiyasi, dam olish sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya kabi soxalarda qo'llaniladigan metodikalar va ko'rsatkichlardan foydalanishni takozo qiladi.

Ijtimoiy korreksion psixologiya va psixodiagnostika- sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogikani uz ichiga kamrab olgan bo'lib, o'quvchilar, pedagoglar, ota-onalar guruhlarini, o'quvchilarga ommaviy kommunikatsiya vositalarining (radio, televideniye, gazetalar va xokazo) ta'sirini, o'quvchilarning burch va huquqlari, ular orasidagi munosabatlarni o'rganishga yo'naltirilgandir.

Pedagogik korreksiya va diagnostika - Korreksion psixologiyaning eng yaxshi rivojlangan va muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unga o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini aniqlash, uzo'zini baholashi, psixologik "ximoya usullari"ni, o'quvchi o'zining psixik xolatlarini, ular xarakterining asosiy sifatlarini va boshqa individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgandir.

Korreksion psixologiyaning asosiy tamoyillari. Albatta, xar qanday fan soxasi uziga xos obyektga, predmetga va ularga mos keladigan tadqiqot yoki amaliy o'rganish metodlariga, uz tamoyillariga egadir. Psixologik korreksiyada qo'llaniladigan metodlar va tamoyillar xozirgi zamon psixologiya fani va pedagogika fanida orttirilgan ilmiy, amaliy tajribalar, shakllangan tamoyillar asosida shakllanmoqda. Shu bilan birga uz xususiyatlariga ega xamdir. Buning sababi Korreksion psixologiyada qo'llaniladigan metodlar va tamoyillar fanda biror yangilik ochishdan kura kuproq mavjud bilimlar, metodlar, tamoyillarning amalda samarali qo'llanilishiga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, **korreksion psixologiyaning quyidagi tamoyillarini ko'rsatib utish mumkin:**

1. Korreksiya va diagnostika nazariyasi va metodikalarining ilmiy asoslanganligi. Korreksiya va diagnostika obyektini yaxlit ravishda genetik va tizimli tahlil qilish, ularni modellashtirish, qo'llaniladigan metodikalar, ko'rsatkichlarning ilmiy asoslanganligi, olingan natijalar va ularning interpretatsiyasining ishonchliligi, anikligini, validligini puxta ishlab chiqilgan metodologik asoslarda ta'minlash. Ilmiy asoslanganlik tamoyili qo'llanilayotgan metodikalarning etnik, ijtimoiy muxitga, shu jumladan Korreksiya va diagnostika o'tkazilayotgan o'quv yurti va o'quv guruhiga mosligini talab qiladi. Bu tamoyilga amal qilish psixologlarni turli xil yengil, "kuziga yaxshi ko'ringan" yoki "kuliga tushib qolgan" metodikalarni bilib-bilmay qo'llashdan saqlaydi.

2. Korreksiya va diagnostikaning izchilliligi va anik yo'nalganligi. Korreksion psixologiya boshqa psixodiagnostikdan farqli ravishda anik yo'nalishga, anik obyektga va maqsadga qaratilgan. Shu sababli Korreksiya va diagnostika faoliyati (jarayonining) natijalari umumiy xulosalar, abstrakt muloxazalardan emas, balki anik shaxsga (masalan, o'quvchi), anik guruhga tegishli bo'lishi, Korreksiya va diagnostika natijasida anik xulosa chiqarib, kamchiliklarni bartaraf qilish, yordam berishning anik yullarini ko'rsatib berishi lozim.

3. Korreksiya va diagnostika shakl va metodlarining optimalliligi. Qo'llanilayotgan metodikalar, o'quvchiga yondashish usullarining amaliyotchi psixolog, pedagog yoki pedagog-diagnostga kam kuch va vaqt sarflab, o'quvchi haqida muhim, sifatli, katta amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlar yigishga imkon berishi. Korreksiya va diagnostikaning shakl va metodlarining optimalligini ta'minlash uchun psixologiyada kup yillar davomida qo'llanilib kelayotgan, kulay, oddiy va shu bilan birga samarali metodlarini tanlash va qo'llash zarur.

4. O'rganish obykti haqidagi faktlarni yigish, bayon qilish va to'g'ri yulga solishning birligi. O'rganilayotgan obyekt haqida ma'lumotlar yigish, ularni pedagoglarga ko'rsatish va Korreksiya jarayonida o'rganilayotgan o'quvchiga yoki o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishda, kamchiliklari bartaraf qilishda, o'quv yurti raxbarlariga, pedagoglarga ma'lum psixologik, pedagogik yordamlar berish, to'g'ri yulga solish, kullab-kuvvatlash funksiyalarning birgalikda olib borilishi.

5. Korreksiya va diagnostikaning ketma-ketlili va uzluksizligi- Korreksiya va diagnostikaning boskichma-boskich amalga oshira borib, o'quv jarayoniga, o'quvchining o'zlashtirishiga xalakit berayotgan sabablarni ochish, olingan natijalardan keyingi boskichlarda, o'quv-tarbiya jarayonida uzluksiz foydalanishda yuzaga chikadi.

6. Korreksiya va diagnostika metodlari va jarayonlarining kulayligi va ommobopligi. Korreksiya va diagnostika metodlarining oddiyli, pedagoglar, amaliy psixologlar, o'quv yurti raxbarlari, tekshiriluvchi uchun kulayligi, ularda Korreksiya va diagnostikaga nisbatan qiziqish, intilish uygotishga xizmat qilishini ta'minlovchi tamoyil.

7. Korreksiya va diagnostikaning xar tomonligiga (komplekslili). Bu tamoyil o'quvchi shaxsini, uning individualpsixologik xususiyatlarini, ruhiy jarayonlarning rivojlanganlik darajasini, o'quv faoliyatining boshqa xususiyatlarini o'rganish uchun tanlangan metodlar va metodikalar o'quvchini bir butun xolda, xar tomonlama o'rganish, ta'riflash, yondoshish imkonini berishda yuzaga chikadi. Diagnostik metodikalar bir-biri bilan bog'liq bo'lishi, birbirini tuldish bu tamoyilning asosiy talablaridan biridir.

8. Korreksiya va diagnostika o'quvchi rivojlanishining kelajagini, okibatlarini oldindan kura olish (prognoz qilish) imkoniyatini bera olishi. Xar qanday korreksion psixologiya o'quvchining kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini, o'quv jarayonining tashkil kilinganlik darajasini ko'rsatib berish bilan cheklanib kolmasligi lozim. Diagnostik jarayonda o'rganilayotgan obyektning "kelajagi", ertangi kuni xam, taraqqiyot tendensiyalari, xam ma'lum omillar ta'sirining okibatlarini ochib berishi kerak. Shu xoldagina, prognoz moxiyatidan kelib chiqqan xolda ta'lim-tarbiya jarayonida yul quyilayotgan xatolar, o'quvchi taraqqiyotida kuzga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, to'g'ri yulga solish imkoniga ega bulamiz. Shu sababli Korreksion psixologiya metodlarining prognostik bo'lishi eng muhim talablardan biridir.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: tinglovchilarda o'quv mashg'ulotlarining zamonaviy turlari asosida tashkil etish va o'tkazish metodikasiga oid ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.


Amaliy mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalaniladi.

Birinchi topshiriq. Tinglovchilardan o'quv mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllarini turlarini belgilash talab etiladi. Tinglovchilarga quyidagi rasm shakldagi ish varog'i taqdim etiladi

O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari



Ikkinchi topshiriq. Tinglovchilar psixologik xizmat darsiga qo'yiladigan talablarni quyidagi jadvalga to'ldirishi talab etiladi.



Uchinchi topshiriq. Tinglovchilar tomonidan psixologik xizmat fanini o'qitishda *an'anaviy* va *noan'anaviy* usullarni qiyosiy tahlil qilish talab etiladi. Bunda tinglovchilar SWOT tahlil metodidan foydalanishlari mumkin.


Tinglovchilarga ish varog'i

<i>Kuchli tomoni</i>	<i>АНЪАНАВИЙ</i>	<i>Kuchsiz tomoni</i>
<i>Imkoniyatlar (xususiyatlari)</i>		<i>To'siqlar</i>

Tinglovchilarga ish varog'i

<i>Kuchli tomoni</i>	H O A	<i>Kuchsiz tomoni</i>
<i>Imkoniyatlar (xususiyatlari)</i>		<i>To'siqlar</i>

To'rtinchi topshiriq! Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlarini izohlang!



Beshinchi topshiriq. Quyidagi jadvaldagi Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bosqichlari mazmunini to'ldiring

Tinglovchining ish varog'i

Chaqiriq (Da'vat)	Anglash	Fikrlash

To'ldirilgan varianti

Chaqiriq (Da'vat)	Anglash	Fikrlash

1. Yangi ma'lumotlarni ma'lum bo'lganlar bilan bog'lash. 2. Talabalarni faollashtirish.	1. Chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish inersiyasini, faollikni qo'llab-qo'vvatlash. 2. Talabalarda o'z	1. Talabalar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari bilan ifodalashga harakat qilib ko'rishlari kerak.
3. Taklif etilgan mavzuni muhokama qilish	tushinishini kuza-tishga doir intilish-larini qo'llash. 3. Yangi o'quv materialining tushunilishiga erishish	2. Tushunganlarni o'z so'zlari bilan ifodalab, qayta tuzganda shaxsiy anglangan kontekst yuzaga keladi. 3. Jonli fikrlar almashinuviga erishiladi

Oltinchi topshiriq. muammoli-vaziyat. Kompyuter grafikasi darsida o'qituvchi kompyuterda grafik ishni ishlash yo'llarini past tempda namoyish qilmoqda. Guruhning 9 nafar o'quvchisi esa o'qituvchining har bir harakatiga diqqat bilan e'tibor berib, hammasi uning harakatiga bir ovozdan javob berishmoqda. 1) Menda bu xolat tayyor!

- 2) Bundan so'ng qanday operatsiya bajariladi?
- 3) Animatsiyani bajarish kerak! 4) Obektning frontal qismiga qanday o'tiladi?
- 5) Ctrl +F !

Mustaqil fikr: O'qituvchi o'qitishning qanday tamoyillaridan foydalandi?

Bunday o'qitish haqida siz nima deya olasiz?

Uning mohiyati nimada ko'rinadi?

Yettinchi topshiriq. muammoli-vaziyat. Mutaxassislik fanida "Grafik obyektlar chizish" mavzusini bayon qilish jarayonida o'qituvchi tomonidan guruh oldiga savol qo'yildi: biror grafik obyekt chizishda nimalarga e'tiborni qaratish zarur? Javoblar turlicha bo'ldi: "to'g'ri dastur tanlash", "nusxa ko'chirishda burchak qismlariga e'tibor berish", "rang formatlarida RGB CMYK larni to'g'ri tanlay olish" va hokazo. O'qituvchi qo'shimcha savollar orqali guruhni "boshqarib" borib, grafik obyektlar chizish yo'llarini o'zi yakunlab beradi. O'quvchilarga esa grafik obyekt chizishni kompyuterda bajarish topshiriladi.

Mustaqil fikr: 1. O‘qituvchi yangi mavzuni bayon qilishda qanday didaktik usullardan foydalandi?

2. Yangi mavzuni shu tartibda tushuntirib berishini to‘g‘ri deb bilasizmi?

3. “Savolni to‘g‘ri qo‘yilishi – masalaning yarmini hal qilishdir” degan jumla nimani izohlaydi?.

Mashg‘ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunlanadi.

3-AMALIY MASHG‘ULOT. MAVZU: INDIVIDUAL VA GURUXIY PSIXOKORREKSIY. (4 soat)

Reja:

5. Psixologik xizmatni boshqarish.
6. Psixokorrekson dasturlar klassifikatsiyasi.
7. Psixokorrekson tadbirlarning mazmuni klassifikatsiyasi.
8. Individual Korreksion psixologiY. Guruhiy Korreksion psixologiY.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi: tinglovchilarda individual va guruxiy psixokorreksiyaning qo‘llashga oid ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.

Tayanch iboralar Korreksion ish, psixologik tadqiqot, shaxsiy rivojlanish, guruhiy korreksion ish, yosh inkirozi.

Psixologik xizmat tuzilishi va uni boshqarish

1. Psixologik xizmatni boshqarish.
2. Psixokorrekson dasturlar klassifikatsiyasi.
3. Psixokorrekson tadbirlarning mazmuni klassifikatsiyasi.
4. Individual Korreksion psixologiY. Guruhiy Korreksion psixologiY.

Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin

- A) psixologik madaniy-oqartuv ishlari
- B) psixoprofilaktika
- V) psixodiagnostika

G) psixik rivojlantirish va korreksion psixologiya

D) psixologik maslahatlar

Psixologik xizmatning asosiy vazifasi tadqiqot ishlari, amaliy ishlar va tashfiqot ishlaridan iborat 3 ta vazifadan tashkil topadi.

Ilmiy tadqiqot vazifalari -o'quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim muammolarini, ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslarini, o'quvchilar bilan o'qituvchilar, maktab psixologlari bilan o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirini xamda maktab psixologining etikasini uz ichiga oladi.

Amaliy vazifalar-psixologik tadqiqotning natijalarini amalda kullab bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash, o'quvchilarning o'qish faoliyatini osonlashtirish, o'quvchi shaxsini xar tomonlama kamol toptirish, o'quvchilarning qobiliyat va mayllarini aniqlash va rivojlantirish, talabalar bilan kasb-xunarga oid suxbat, maslahat ishlarini olib borish, tarbiyasi qiyin bolalar bilan turli xildagi ish olib borish kabi asosiy vazifalarni xal qilishdan iboratdir.

Tashfiqot ishlari- psixologik bilimlarni, psixologik ta'limni tashfik qilib o'quvchilarning psixologik bilimlarini oshirish, ota onalar uchun seminarlar, ma'ruzalar va suxbatlar uyushtirish, anjuman teleko'rsatuv va radioda chikish, yakkama yakka maslahatlar tashkil etish, muloqot treninglarini uyushtirishdan iboratdir.

Psixokorreksion dasturlar tuzish va unga qo'yiladigan talablar:
Psixokorreksion dasturlarni tuzishda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

- korreksion ishning aniq maqsadini belgilash.
- korreksion ishning konkret maqsadini aniqlovchi vazifalarni aniqlash.
- Ishning formasini aniqlash (individual, guruhiy yoki aralash)
- Metodika va texnikani ishlab chiqish.
- Korreksion ishga ketadigan umumiy vaqtni aniqlash.
- Uchrashuv kunlarini belgilab olish.
- Vaqtni aniqlash (boshida 10-15 minut, oxirida 1,5-2 soat)
- Korreksion dasturni ishlab chiqish va mazmun moxiyatini belgilab olish.
- Korreksion ishda yaqin qarindoshlarining qatnashuvini belgilash.

- Korreksion dasturni boshlashda dinamika va o'zgartirishlar bo'lishi yoki bulmasligini belgilash.

Korreksion dastur muammoning butunlay hal bo'lishini oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki samarali ish olib borishda muammolarning yo'qolishi va yechilishiga xar tomondan baho berilayotganiga ham qaraladi.

Masalan: mijoz uchun dasturda ishtirok etayotgan vaqtda uning emotsional holatining yaxshilanishi, ijobiy his qilishi bilan belgilanadi.

Psixolog uchun korreksion dastur tashkil etilishi, majburiyatni his etishi oldiga qo'yilgan vazifani bajarilishi bilan aniqlanadi.

Mijozning yaqinlari uchun esa, mijozda paydo bo'lgan muammoning qay tarzda ijobiy hal etilganligi bilan aniqlanadi.

Korreksion dasturlarning ijobiy ta'sir doirasi uning intensivligidadir.

Korreksion mashg'ulotlar 1-1,5 soatdan oshmasligi, olib borilayotgan o'yinning ma'no jihatdan o'ylanganligi bilan ham bog'liq. Mashg'ulotlar tugagandan keyin ham iloji boricha mijozning taraqqiy etishi bilan qiziqib borish va muloqotni yo'qotmaslik 1,2 oyda 1 marotaba uchrashi lozim. Korreksion dasturlar qancha erta aniqlanib ish boshlansa shuncha tez samara beradi.

Korreksion tadbir so'ngida korreksion dasturning samaraliligi, maqsad va vazifalarining bajarilganligiga baho beruvchi xulosa hisobot tayyorlanadi.

Psixokorreksion **tadbirlarning samaraliligini** baholash quyidagi mezon bilan aniqlanadi:

A) rivojlanishdagi qiyinchilikning yechilishini barxam topishi.

B) maqsad va vazifalarning belgilanishi korreksion effektivligi, uzoq muddatdan so'ng ish davom etayotganda, oxirida aniqlanadi.

Psixokorreksiyalarni samaraliligini aniqlovchi omillar:

1. Mijozning kutgan natijasi.
2. Mijozda mavjud bo'lgan muammolaridan xalos bo'lishi.
3. Mijoz muammosining xarakteri.
4. Mijozning birgalikdagi faoliyatga tayyorgarligi.
5. Korreksion tadbirni o'tkazayotgan psixologning kutgan natijasi.
6. Psixologning shaxsiy va professional tayyorligi.

7. Psixokorreksiyaning samarasi konkret metod va ta'sir etuvchi xususiyatdan aniqlanadi.

Psixokorreksion yordamning samaraliligiga baho berish borgan sari aktuallashtirishda. Bu psixologning ta'sir eta olishi va korreksion ishning sifatligidandir.

- Ishning samaraliligini baholashda aniq metodni belgilab olish zarur. Korreksion ishda ma'lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida psixologlar turli metodlardan foydalanadilar.

- Hatto bir metod har xil mutaxassisda har xil natija beradi.

- Ishning bahosini bu metoddan xabari bulmagan ekspert berishi zarur.

- Psixologning tarbiyaviy-ta'limiy sifatini hisobga olish kerak.

- Psixologning kasbiga bo'lgan qiziqishini hisobga olish zarur.

- Guruhiy korreksion ishda psixologning professional bo'lishi katta ahamiyatga ega.

- Psixokorreksion ishlarda mijoz psixologik ta'siridan so'ng quyidagilarga qarab baholanadi:

- Ichki kechinmalarining subyektiv mohiyatining o'zgarganligi.

- Ta'sir etgandan so'ng mijozning ijobiy tomonga o'zgarishi.

- Psixologik ta'sirning samarasini belgilashda psixofiziologik metodlar ishlatish mumkin. Ular insonning vegetativ-somatik fiziologik va psixik funksiyalarini baholaydi. Psixokorreksion ta'sirning samaraliligi kriteriysi xar bir shaxsdagi salbiy o'zgarishlarni aynan uni o'ziga xos ekanligini hamda tanlangan psixokorreksion metodlar ta'siri shu o'zgarishlarga qaratilganligini hisobga olish bilan bog'liqdir.

Individual psixokorreksiya xususiyatlari

PSIXOLOGIK korreksiya, yuqorida aniqlaganimizda, mijozning kabul kilingan meyorlarga mos kelmaydigan ruhiy rivojlanishining xususiyatlarini «to'g'rilashga», qaratilgan mutaxassisning faoliyatini aks ettiradi. Shaxsiy yondashuv asosida, Adler tomonidan yaratilgan yo'nalish shaxsiy psixologiyaning ba'zi negizlarini o'z ichiga olgan va moxiyati bo'yicha gumanistik psixologiya va ekzistensializmni kupkina holatlarini maftun qilgan. Asosiy

tushunchalari: «odam», «shaxs», shaxsiy rivojlanish, «turi», «yoshi» tengligi stress, «frustratsiya» deb qabul qilingan. Odam –Yerda hayot rivojlanishini yuqori pogonasini gavalashtirgan zot, ijtimoiy – tarixiy faoliyat subyektidir. Shaxs - ijtimoiy rivojlanish fenomeni, ong va tushunchaga ega anik tirik odam. Shaxsiy rivojlanish - ijtimoiylashtirish va tarbiyaalanish natijasida to‘rni ijtimoiy xususiyati sifatida shaxsni shakillanish jarayonidir.

Shaxs shakillanishini tabiatdan anatom—fiziologik shart—sharoitlariga ega bo‘lgan bola ijtimoiylashishi jarayonida insoniyatning yutuklarini o‘zlashtirib olam bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. Ushbu jarayonda shakllangan qobiliyat va vazifalar shaxsda shakllangan odamning sifatlarini takror ishlab chiqaradi .

Individ - (individium) - Inson birligining aloxida namoyandasi; kurol, belgilardan foydalanuvchi va ular orqali shaxsiy fe’l—atvori va ruhiy jarayonlariga ega buluvchi, tabiiy(biologik) chegaradan tashqariga chikuvchi ijtimoiy mavjudot, ushbu tushuncha bilan individuallik tushunchasi chambarchas bog‘liqdir, u hamda boshqa odamlardan ijtimoiy ahamiyati tomonidan farqlanadigan odamdir, individning shaxsi va o‘ziga xos ruhiyati uning takrorlanmasligidadir.

Yosh—shaxsiy rivojlanishini vaqtinchalik xususiyatlarini belgilash uchun xizmat qiladigan turkum. Psixologiyada yoshni

xronologik tushunchalari muxokama
kilinadi, Xronologik yosh –«to‘rni to‘g‘ilganidan
boshlab yashash davomiyliligini aks

ettiradi».Psixologik yosh - «xronologik yoshdan farqli ravishda» –bu organizm shakillanish qonuniyatlari yashash, o‘qish va tarbiyalanish sharoitlarini asoslaydigan hamda muayyan—tarixiy kelib chikishga ega, ontogenetik rivojlanishining o‘ziga xos anik sifatli tushunchasini bildiradi.

Yosh inkirozi - keskin psixologik o‘zgarishlar bilan xarakterlanadigan ontogenezni aloxida nisbatan uzoq davom etmaydigan davrlaridir. Asabiy va jaroxatli xarakterga ega tangliklardan farqli ravishda shaxs rivojlanishining meyoriy ketma – ketligiga zarur bo‘lgan meyorlarga taalluklidir.

Ctress - turli xil ekstremal ta’sirlar - stressorlarga javoban yuzaga keluvchi keng doiradagi holatlarni belgiluvchi holat.

Frustratsiya – ma’lum maqsad yulidagi mavjud mavxum tusiklarni paydo bo’lishiga nisbatan hosil bo’ladigan muvaffakiyatsizlikni boshdan kechiruvchi ruhiy holat,

Psixokorreksiyaning asosiy maqsadi mijozning yosh va turli xususiyatlari shuningdek subyektiv vokeligidan kelib chikib tushuntiriladigan shaxs resurslarini faollashtiruvchi va meyoriga mos keluvchi holatga olib kelishdir.

Psixokorreksiyaluvchi ta’sirining asosiy kuroli sifatida psixolog chikadi va korreksion jarayon psixolog - mijoz juftligida kechadi. Mijozlarning turli xil talablarini va shakllangan vaziyatga munosabatlarini to’rtta asosiy strategiyaga birlashtirish mumkin.

- 1) vaziyatni o’zgartirish;
- 2) vaziyatni o’zgartirish uchun o’zini o’zgartirish;
- 3) vaziyatdan chikib ketish;
- 4) mazkur vaziyatda xayotni yangi xususiyatlarini tanish.

Psixokorreksiyaning so’ngi vazifalari uchta asosiy soxalarni istalgan o’zgarishlariga erishishidir:

- kongnitiv;
- emotsional; (his- tuyg’u).
- o’zini tuta bilish.

Shaxsiy psixokorreksiyaning xususiyatlarini hisobga olib uchta aloxida soxalarning xar birida anik vazifalarni joylashtirish mumkin.

Kognitiv soxa; (shaxsiy psixokorreksiyada yetakchi, biografik-tushuntirishi):

- 1) o’zining xulqi – atvori, munosabati, reksiyasi sababini anglash;
- 2) his-tuyg’u va xulq – atvor stereotiplarni anglash;
- 3) psixologik omillar va somatik buzilishlar orasidagi bog’liqlikni anglash;
- 4) mojarolar va ruhiy jaroxatlovchi vaziyatlarni kelib chikshida o’zining roli va javobgarligini his qilishi;
- 5) boshdan kechirishi sabablari va munosabat usullarini xamda o’zining munosabati shakillanishi sharoitlarini anglashi.

6) mijozni mutaxassis tomonidan emotsional kullab— kuvvatlash;

- 7) mijoz tomonidan tuyg'ularni anglab va yuzaga chiqarish;
- 8) o'ziga nisbatan yanada samimiy munosabatni shakllantirish;
- 9) boshdan o'tkazish va emotsional munosabatlar usullarini o'zgartirish;

O'zini tuta bilishi , xulq- atvor- soxasi: 1) mijozni mos kelmaydigan reaksiyasini korreksiyalash; 2) xulq – atvorini yaxshi usullarini o'zlashtirish.

Individual psixokorreksiyaning o'tkazish shartlari:

- 1) mijozni psixologik yordam olish uchun ixtiyoriy roziligi;
- 2) mijozni muttaxisga ishonchi;
- 3) mijozni tadqiq qilish jarayonida , korreksiya dasturini shakllanishi va amalga oshirishida mijozni faolligi.

Individual psixokorreksiya ko'rsatma:

- 1) mijozni xohishi;
- 2) mijozni muomalasi xarakteri (shaxsiy muammosi)
- 3) mijozni guruhda ishlashdan bosh tortishi yoki ba'zi sabablarga kura guruhda katnasha olmasligi (jismoniy holati, kasallik);
- 4) mijoz xavotirini yuqori darajadali;
- 5) o'tkir qayguli holat.

Individual psixokorreksiya qarshi ko'rsatma:

- 1) yaqqol ifodalangan qo'zgaluvchanlik;
- 2) ongining yetarlicha rivojlanmaganligi;
- 3) axloq – odob meyorlarining pastligi.

Individual psixokorreksiyaning samaradorligi quyidagilar bilan aniqlanadi:

- 1) psixologning shaxs sifatidagi xususiyatlari (ijtimoiy kelib chikishi, jozibadorligi, intellektual rivojlanishi, iroda. xarakterini xususiyatlari);
- 2) mijoz va psixolog o'rtasida shakllangan munosabat (ishonch, mutaxassisning obru kozongani, mijozni mutaxassisga tobeligi);
- 3) mijozga nisbatan psixologning tanlagan vaziyatining mosligi (psixologning tutgan yuli, psixologni mijozga nisbatan munosabatida kabul qilgan boshqarish strategiyasi; Ushbu tanlov psixolog tamonidan

mijozning shaxsiy xususiyatlarini va vaziyatni xossalaridan ishlab chiqqan xolda amalga oshiriladi.

4) mutaxassis tomonidan ma'lumotlarni shakillantirish usullari (isbotlash darajasi, mantik, his-tuyg'ularga kayta yondashuv). Shaxsiy psixokorreksiyada texnika tanlovi mutaxassisning afzal kurgan, mijozni shaxs sifatidagi va uning muommosi xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda olib boriladi. Shaxsiy psixokorreksiyada verbal ta'sirni asosiy usullari ishontirish «persuaziya» va ta'sir etish hisoblanadi.

Ishontirish—mijozning ongiga uning shaxsiy tanqidiy muloxazasiga (uy—fikriga) murojat qilgan holda ta'sir qilish usuli. Ishontirish usuli asosini tanlab olish, ta'sir maqsadiga kura fakt (haqiqat) va xulosalarni mantiqiy tartibga solish tashkil qiladi. Ishontirish ratsional psixoterapiyaning asosini tashkil qiladi. V.M.Bexterev (1911) ishontirish va ko'ndirishni birlashtirishni, ayniqsa o'z—o'zini tanqid qilishi past rivojlangan mijozlarda, juda foydali deb hisoblangan. Ishontirishdan, mutaxassisni shaxsiy obrusi bilan bog'liq va umuman maslahatlashuv jarayoni natijasiga ta'sir kiluvchi, suggestiv elementni ajratib olish mumkin emas. Qayta (takror) ishontirish (persuaziya) — avval shakllantirilgan jarayonni qayta tiklashdir. Psixologik yordam ko'rsatish paytida takror ishontirish mijoz muommosini mohiyati va uni yechish usullari haqidagi tasavvo'rini o'zgartiruvchi maqsadga yo'naltirilgan, ishontirishni shakillanish ketma-ketligi ko'zda tutiladi.

Ta'sir etish- mijozni ruhiy ta'sir doirasiga bevosita yoki bilvosita maqsadli ta'sir qilish jarayonidir . Tasir qiluvchi obyekt mantiqiy qayta ishlashi va uni tanqidiy baho bermay qabul qilish hamda ruhiy va somatik jarayonlar kechishiga ta'sir qilib maxsus ishlab chiqilgan ma'lumotlar yordamida amalga oshiriladi. Boshqa omillar esa (mimika, harakat, imo-ishora) odatda qo'shimcha hisoblanadi.

Ta'sir etishni bir necha turkumlari mavjud.

1. Ta'sir etish va o'z-o'ziga ta'sir etish .
2. Ochiq va yopiq.
3. Aloqali va aloqasiz.

Ta'sir etish mijozga turli holatlarida qo'llaniladi: uygok xolida , tabiiy uyku xolida, gipnotik uykuda.

Psixokorreksiya amaliyotida ta'sir etish u yoki bu darajada mijoz bilan mutaxassisning har bir uchrashuvida mavjud bo'ladi, lekin psixoterapevtik ta'sirning aloxida usuli bo'lishi ham mumkin.

Mustaqil psixoterapevtik ta'sir sifatida ta'sir etish mijozning holati va muammosini xarakterini hisobga olgan xolda va maxsus tipdan foydalanib, anik formulalarni aytish yordamida amalga oshiriladi.

Korreksion ishning extimoliy natijalari:

1) Mijoz o'zining talablari, kechinmalari, fikrlariga diqqatini kuchaytirishi.

2) O'z-o'zini baholashi va keraqliligini oshirish.

3) O'zini bilishga ruhsat berish (o'z-o'zini tushunish, o'z- o'zini kabul qilish, shakllantirish yoki orttirish)

4) O'z-o'zini takomillashtirishni rivojlantirishga harakat qilish

3) psixokorreksiyaning eng asosiy natijasi mijozni o'z hayoti uchun javobgarligini va uni nazorat qilishni qabul qilishdir.

4) psixologik o'zgarishlar o'zgaruvchanligini demak, har bir uchrashuvdan samarali natija kutib bulmasligini yodda tutish.

Shaxsiy immunokorreksiyaning asosiy bosqichlari:

1. shartnoma tuzish;

2. mijozni muammosini tadqiq qilish;

3. muammoni yechish yo'llarini qidirish;

4. psixokorreksiya dasturini ishlab chiqish;

5. dasturni amalga oshirish;

6. samaradorligini baholash;

Shartnoma tuzish. Bu bosqich mijozga mutaxassis tomonidan ma'lumot berishni o'z ichiga oladi:

1. korreksiyaning maqsadi haqida;

2. o'zining malaka darajasi;

3. haq to'lashi;

4. psixokorreksiyaning taxminiy davomiyligi;

5. mazkur holatda psixokorreksiyaning maqsadga muvoffiqligi;

6. psixokorreksiya jarayonida vaqtinchalik yomonlashuv xavfi mavjudligi haqida;

7. sir saqlanish darajasi haqida.

Sir saqlashni mutloq asosga ko'tarish mumkin emas, chunki bu tushuncha nisbatdir, bir tomondan taqdim etilayotgan ma'lumotlar xarakteriga bog'liq bulsa, ikkinchi tomondan mijozga ziyon keltirmaydigan materiallar ushbu qoidaga buysunmaydi.

Quyidagi holatlarda kasb siriga rioya qilinmaydi:

1. mijoz hayotiga katta xavf solinganda;
2. mijozning jismoniy harakatlari;
3. mijozni kasalxonaga yotqizish zarur bo'lganda;
4. uchinchi kishilar manfaatdorligi (qarindoshlar, yaqinlari, mijozning tanishlari).

Guruh **psixokorreksiya xususiyatlari:** Guruh bu ijtimoiy yaxlitlikdan malum belgilariga ko'ra (faoliyat xarakteri, ijtimoiy mavqei, rivojlanish darajasi va b.q.) ajratib olingan, chegaralangan hajmga ega kishilar jamoasidir.

Guruhlar ko'pincha quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- Hajmiga ko'ra : katta, kichik, mikroguruhlar;
- Ijtimoiy mavqeiga ko'ra: rasmiy - norasmiy;
- O'zaro bog'liqlik xususiyatlariga ko'ra: real, kontaktli va shartli;
- Rivojlanish darajasiga ko'ra: past daraja: assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, diffuz; yuqori darajali jamoalar;
- Ahamiyatligiga ko'ra: referent, azolik guruhlar;

Ajratilgan belgilar har bir konkret guruhni faoliyatdagi maqsad va vazifalarini o'ziga hosligini belgilab berali.

Psixokorreksion guruh - o'z-o'zini tahlil qilish, shaxsiy ko'nikmalarni hosil qilish, shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish maqsadida sun'iy birlashgan kichik guruhlariga aytiladi. Bu o'zaro tasir shu yerda va *hozir* tamoyili asosida guruh azolari o'zlari bilan yuz berayotgan jarayonlarni o'rganadilar.

Psixokorreksion guruh faoliyatining asosiy tamoyillari:

1. Masuliyatlik tamoyili(o'zi uchun va boshqalar uchun);

2. Yaqinlik tamoyili(to‘la ochiqlikni talab qilmasada, samimiylik, empatiya va sirni saqlashga asolanadi);

3. Qo‘llab-quvvatlash tamoyili(psixolog guruh azolarini ko‘llab-quvvatlasa, guruh azolari bir-birlarini qo‘llabquvvatlaydilar);

4. Konkuriyentlik tamoyili (“shu yerda va hozir” vaziyatida har bir guruh azosi o‘z-o‘zi va boshqalar bilan yakdilligi).

Guruhiy psixorreksiya ochiq va yopiq guruhlarda o‘tkaziladi. Katta guruhlar - 25-30 kishi va kichik guruhlar – 5- 8-12 kishidan iborat bo‘ladi. Yopiq guruhlarda guruh azolari soni doimiy bulsa, ochiq guruhlarda o‘zgarib turishi mumkin. Guruhga og‘ir jismoniy nuqsonlarga ega bo‘lgan, ruhiy sog‘lig‘i buzilgan, guruhda ishlashni istamagan, yaqin qarindoshlarni, xizmat doirasida bir-biriga tobe bo‘lganlarni, bir-biriga o‘ta adovatli kishilarni qabul qilish mumkin emas.

Guruh qisqa muddatli(1-6 oygacha) yoki uzoq muddatli(bir necha yilgacha) bo‘lishi mumkin.

Mashg‘ulotlarning qisqa yoki uzunligi korreksion tasirning maqsad va shakliga ko‘ra har xil bo‘ladi. Bir haftada uchrashuv soni 2-4 ta, vaqt davomiyligi 20-90 minutgacha bo‘lgan holda belgilanadi. Marafonlarda psixokorreksion mashg‘ulotlar o‘z maqsadlaridan kelib chiqqan holda 9-16-18 soat davom etishi mumkin.

Psixokorreksion guruh rahbari oliy psixologik malumotga, ushbu yo‘nalishda mutaxassislikka, shuningdek individual-guruhiy ishlarda mijoz sifatida tajribaga ega bo‘lishi zarur. Har bir guruh yuqori kasbiy malakalarga ega bo‘lishi lozim.


Amaliy mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalaniladi.

Birinchi topshiriq. Tinglovchilarning Steam-ta’lim xususiyatlari haqidagi kasbiy bilimlarni shakllanganlik darajasini aniqlashga oid anketa-so‘rovnoma o‘tkaziladi. Har bir tinglovchi quyidagi anketa savollariga javob berishi talab etiladi.

№	Anketa savollari	Javob
---	------------------	-------

1	Psixokorreksiya deganda nimani tushunasiz?	
2	Psixologik xizmatning fanlararo aloqadorlik qanday ahamiyatga ega?	
3	O'quv bilimlarining fanlararo tuzilmasi nima?	

Ikkinchi topshiriq. “Venna diagrammasi” metodi asosida o‘qitadigan faningizni “Science – aniq fanlar” bilan o‘zaro integratsiyasi aniqlang.



Mashg‘ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunlanadi

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barotov SH.R. Psixologik xizmat. –T.Navro‘z. 2018.
2. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
3. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi-Toshkent, Noshir., T 2010.
4. G‘oziyev E.R. Psixologiya metodologiyasi-Toshkent.O‘qituvchi.2010
5. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulning xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib, tayyorlashi tavsiya etiladi:

- meyoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
 - tarqatma materiallar vositasida ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
 - maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- amaliy mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlarni bajarish.

Mustaqil ta'lim mavzulari 2. ArtterapiY.

3. Maslahat nazariyalari
4. Shaxsga yo'naltirilgan maslahat
5. Geshtal maslahat berish
6. Realizm bo'yicha maslahat 7. Ekzistensial maslahat
8. LogoterapiY.
9. Psixonaliz
10. Bixevioral maslaxat
11. Xulq-atvor bo'yicha maslahat
12. Ijtimoiy kognitiv nazariya
13. Ratsional-emotiv maslahat berish
14. Kognitiv maslahat
15. Multimodal maslahat berish
16. Ota-onalarda kongruentlikni shakllantirish
17. Bolaga nisbatan qattiqqo'llik munosabatida bo'lish moslasha olmaslik olmaslik omili sifatida
18. Bolalarda va o'smirlarda psixologik jarohatlarni da'volash
19. Depresiyaga uchragan bolalar va o'smirlarga maslahat berish
20. Ish boshlashdan oldin konsultantlar oldida vujudga keladigan muammolar

VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
individual	tug‘ma va o‘zlashtirilgan xususiyatlarning noyob uyg‘unligini ifodalovchi alohida inson.	the individual as a unique combination of its innate and acquired properties..
Kommunikatsiya	(lot. communicatio — umumlashtiraman, bog‘layman) Inson yaratgan texnikaviy tizimlarda quyidagi 4 ta asosiy K. turi bor: "inson-inson", "insonmashina", "mashinainson", "mashinamashina".	Communication is simply the act of transferring information from one place to another
Bilish	olaning inson ongidagi in’ikos yetish jarayoni . inson o‘zini qamrab olgan atrof – muxit to‘g‘risida bilish va tasavvurga yega bo‘lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug‘ullana olmaydi. Bilishning maxsuli natijasi bilim bo‘lib, xar qanday kasbni yegallash faqat bilim orqali ro‘y beradi.	the process of perception in the human mind of the universe . a person can not engage in any type of activity without knowledge and imagination about the surrounding world that surrounds him. The result of the product of knowledge is knowledge, and the acquisition of a chartered profession takes place only through knowledge.
Metod	(sinonimi – usul): voqelikni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish operatsiyalari yoki usullari yig‘indisi.	(synonym - method): set of methods and operations of practical or theoretical understanding of reality.

Metodologiya	fanlar uchun yshnalish beradigan ilmiy bilish	This is usually a readymade "recipe", an algorithm,
---------------------	---	---

	hisoblanib, u fanda tadbiq etiladigan tadqiqot usullarini majmui hisoblanadi.	the procedure for carrying out any action aimed.
Individ	tug'ma va o'zlashtirilgan xususiyatlarning noyob uyg'unligini ifodalovchi alohida inson.	the individual as a unique combination of its innate and acquired properties.
Intreaktivlik	inglizcha «Interack» so'zidan olingan bo'lib – o'zaro munosabat, birbiriga bog'liqlik, o'zaro aloqa. Bu texnologiya bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga axborot almashash sharoitini yaratadi, ya'ni aloqa jarayonidagi barcha ishtirokchilarni bir vaqtning o'zida o'zaro bog'laydi	Interaction is a kind of action that occurs as two or more objects have an effect upon one another. The idea of a two-way effect is essential in the concept of interaction, as opposed to a one-way causal effect.
Muloqot	Muloqot	communication

Konvergensiya	birlashish, ko‘shilish ma’nosini bildirib, OAV soxasida ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: a) bir kanal orqali turli media vositalar ishtirokida axborot yetkazish; b) bir taxririya ostida turli media kanallarining mavjudligi (matbuot, Internet nashr, TV va radiokanal va x.zo).	In general, convergence is a coming together of two or more distinct entities or phenomena. Convergence is increasingly prevalent in the media; in this context the term refers to the combination of two or more different technologies in a single medium.
Psixologik eksperiment	tekshiriluvchilarning hayot faoliyatiga	held in special conditions of experience to produce new

	maqsadli ilmiy aralashuv orqali psixologiya haqidagi yangi ilmiy bilimlarni olish uchun maxsus sharoitlarda o‘tkaziladigan tajriba.	scientific knowledge about the psychology of researchers through targeted interventions in the vital activity of the test.
Psixologik tadqiqot	psixik hodisalarni ilmiy o‘rganishdir	scientific study of psychic phenomena
Vizualizatsiya	ma’lumotlarni vizual xolatga o‘tkazish talabi va jarayoni	Visualization is any technique for creating images, diagrams, or animations to communicate a message. Visualization through visual imagery has been an effective way to communicate both abstract and concrete ideas since the dawn of man.

<p style="text-align: center;">Shaxs</p>	<p>inson aktivligiga xos psixik boshqaruvchilarning maxsus insoniy tizimi, psixikadagi shunday barqaror funksional tizimki, uning yordamida inson o‘zi istiqomat qiladigan muhitda tashabbuskor, maqsad sari intiluvchan bo‘libgina qolmasdan, balki yaxshilashga ham qodir bo‘ladi. Inson shaxs sifatidagi fazilatlarni yegallaganligining asosiy belgisi uning turli hatti-harakatlarni sodir qilish qobiliyati, ya’ni</p>	<p>a special human system of psychic managers, characteristic of human activity, such a stable functional system in the psyche, with the help of which a person will be able not only to become an initiative, purposeful, but also to improve himself in a sedentary environment. The main sign that a person acquires qualities in the quality of a person is his ability to commit various actions, that is, to choose the opportunities that deny each other, to sum up many important moments that are connected both with his own life and with the life of others,</p>
	<p>bir-birini inkor yetuvchi imkoniyatlarni tanlash, o‘z hayoti hamda o‘zgalar hayoti bilan ham bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muhim momentlarni sarhisob qila olishi, o‘z hatti-harakatlari uchun ma’suliyatni o‘z zimmasiga ola bilishi kabilardir.</p>	<p>to be able to assume responsibility for his actions.</p>

<p>Ehtiyojlar</p>	<p>Ehtiyojlar inson yoki hayvonning normal yashashi uchun zarur bo‘lgan yetishmovchilikni aks yettiruvchi psixik yoki fiziologik keskinlik holatidir. Ehtiyojlar holat sifatida subyektning hayotiy faolligining shu ma’noda manbai hisoblanadiki, yuz bergan keskinlikni yo‘qotishga qaartilgan sezilarli ta’sir kuchiga ega.</p>	<p>Needs are a state of mental or physiological tension that reflects a deficiency necessary for the normal survival of a person or animal. Needs as a condition is considered the source of the vital activity of the subject in this sense, it has a significant impact force on the loss of tension that has occurred.</p>
-------------------	--	---

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
2. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
3. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
4. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
5. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
6. Mers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.
7. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
8. The Cambridge Handbook of Personality Psychology// Edited by Philip J. Corr. Cambridge University Press 2009.
9. A.Nazarov. Umumiy psixologiY. O‘quv-qo‘llanma. Buxoro viloyati bosmaxonasi MCHJ. Buxoro. 2020.
10. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4CB5092BE4460.pdf>
11. Barotov SH.R. Psixologik xizmat. –T.Navro‘z. 2018.
12. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
13. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi-Toshkent, Noshir., T 2010.
14. G‘oziyev E.R. Psixologiya metodologiyasi-Toshkent.O‘qituvchi.2010
15. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

16. Z.T.Nishonova, Z.Qurbonova, D.S.Qarshiyeva, N.B.Atabayeva Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya – T.: Fan va texnologiyalar 2014.

17. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

18. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

19. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

20. L.Y.Olimov, A.M.Nazarov, SH.SH.Rustamov, SH.SH.Ostonov. “Umumiy psixodiagnostika” o‘quv qo‘llanma. 2020.

21. L.Y.Olimov, SH.R.Barotov, O.R.Avezov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti. Toshkent. 2019.

22. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

23. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida.

<https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3. UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf>

24. Rasulov A.I. Psixodiagnostika.-Toshkent, “Mumtoz so‘z”2010.

25. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

IV. Internet saytlar

26. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

27. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

28. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

29. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali ZiyonET

O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi "Psixologiya" yo'nalishidagi mutaxassislik fanlaridan tayyorlangan "Ta'limda psixologik xizmat muammolari" moduli bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish masofaviy kurslari uchun tayyorlangan materiallar talablarga javob berishi bo'yicha

EKSPERT XULOSASI

"Psixologiya" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan fanlaridan tayyorlangan "Ta'limda psixologik xizmat muammolari" moduli bo'yicha test savollari, o'quv-uslubiy majmua, bitiruv ishi mavzulari hamda masofaviy materiallar mazkur modul bo'yicha tasdiqlangan namunaviy **dastur doirasida tayyorlangan va unga qo'yilgan talablarga javob beradi** hamda BIMM internet portaliga qo'yishga tavsiya etiladi.

Tarmoq (mintaqaviy) markazi
Direktori.



O'.Tilavov

Bo'lim boshlig'i.



O'.Muxamadiyev

"Psixologiya" kafedrasi mudiri.



D.Muxamedova

Tuzuvchi:

ruib

F.Choriyev

